

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**FARG‘ONA POLITEKNIKA INSTITUTI**

**XOLMIRZAYEV NODIRJON NIZOMJONOVICH**

**YANGI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA URBANIZATSION JARAYONLAR  
RIVOJINING IJTIMOY-FALSAFIY OMILLARI**

**09.00.04 – Ijtimoiy falsafa**

**Falsafa fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2024**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of sciences (DSc)**

**Xolmirzayev Nodirjon Nizomjonovich**

Yangi O‘zbekiston sharoitida urbanizatsion jarayonlar rivojining ijtimoiy-falsafiy omillari .....3

**Холмирзаев Нодиржон Низомжонович**

Социально-философские факторы развития процессов урбанизации в условиях Нового Узбекистана .....31

**Xolmirzayev Nodirjon Nizomjonovich**

Socio-philosophical factors in the development of urbanization processes in conditions of the New Uzbekistan .....61

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....66

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**FARG‘ONA POLITEKNIKA INSTITUTI**

**XOLMIRZAYEV NODIRJON NIZOMJONOVICH**

**YANGI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA URBANIZATSION JARAYONLAR  
RIVOJINING IJTIMOY-FALSAFIY OMILLARI**

**09.00.04 – Ijtimoiy falsafa**

**Falsafa fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2024**

**Falsafa fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.4.DSc/Fal111 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Farg‘ona politexnika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashining veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:**

**Xuseynova Abira Amanovna**  
falsafa fanlar doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Salomova Xakima Yusupovna**  
falsafa fanlar doktori, professor

**To‘ychiyev Berdiqul To‘raqulovich**  
falsafa fanlar doktori, professor

**Nazarov Nasriddin Atakulovich**  
falsafa fanlar doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Andijon davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.02.2020.F.72.08 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil “30” noyabr soat 9<sup>00</sup> dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65)221-57-27; e-mail: buxdu\_rektor@buxdu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (539 - raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (65)221-29-14; faks: (0365)221-29-14.)

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil “15” noyabr kuni tarqatildi.

(2024 yil “15” noyabr dagi 23 raqamli reyestr bayonnomasi.)



**Namozov B.B.**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash raisi,  
falsafa fanlari doktori, professor

**Sharipov A.Z.**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash kotibi,  
falsafa fanlari doktori, professor

**Safarova N.O.**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi,  
falsafa fanlari doktori, professor

## KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda kechayotgan globallashtirish urbanizatsiya jarayonlarini tartibga solish, ularning dolzarb masalalarini diqqat bilan o'rganish sohasidagi yuzaga kelayotgan muammolarni bartaraf etishni taqozo etmoqda. Bu esa zamonaviy marketing institutlarini sanoatlashish, tijoratlashish tendensiyalarini rivojlantirish orqali kishilar kundalik hayotida bandlik imkoniyatlarini oshirish muammolariga nisbatan innovatsion yondashuvlar shakllantirishni talab etadi. Shuning uchun mamlakatlar oldiga urbanizatsiya sohasida zamonaviy yechimlarni qamragan davlat dasturlarini ishlab chiqish va joriy etishni, aholi bandligini ta'minlashning zamonaviy shakllarini, yangicha turmush madaniyatini rivojlantirishni, urbanistik taraqqiyotni ta'minlashning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlarini ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo ilm-fanida shaharlar aholisi farovonligining o'sishi va barqaror rivojlanishiga yetaklovchi omillar, urbanizatsiya darajasini barqarorlashtirish, u keltirib chiqaradigan ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy muammolarni bartaraf etish yo'llariga doir praksilogik tadqiqotlar olib borilmoqda. Shaharlashtirish jarayonidagi mazkur muammolarni oldini olish va to'liq tartibga solish, urbanistik taraqqiyotni ta'minlash uchun prakseologik muloqot komponentlarini rivojlantirish va bu orqali urbanizatsiya jarayonlarini faollashtirish muhim o'rin tutadi. Bu borada jamiyatda ijtimoiy hamkorlik, qadriyatlarni asrash, mehmondo'stlik, madaniy merosdan foydalanish, jamiyatda urbanistik madaniyatni yuksaltirishda kishilar tarbiyasida begonalashuv, loqaydlik, mas'uliyatsizlik, kosmopolitizm kabi illatlarni oldini olish hamda bu sohaga oid muammolarni innovatsion metodlar vositasida bartaraf etishning deterministik xususiyatlarini tadqiq etish zarurati ortib bormoqda.

Mamlakatimizda olib borilayotgan tarkibiy islohotlar doirasida aholi farovonligini o'sishi va barqaror rivojlanishida urbanizatsiya jarayonini tartibga solish, shaharlarni kompleks rivojlantirish bo'yicha zamonaviy talablarga javob beradigan jahon tendensiyalaridan unumli foydalanish, fuqarolarimizga munosib turmush sharoiti yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. "Bu yo'nalishdagi muhim vazifamiz mamlakatimiz urbanizatsiya darajasini 2025 yilga qadar 40 foizga yetkazish, butun aholining, jumladan, kam ta'minlangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarning bazaviy zaxiralardan foydalanishi uchun qulay iqtisodiy va moliyaviy shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Aholimiz uchun olis-olis qishloqlarda ham shahardagidan kam bo'lmagan yashash sharoitlari yaratish – muhim vazifamizdir. Aholini, eng avvalo, ehtiyojmand va yosh oilalarni arzon va zamonaviy, qulay uy-joy bilan ta'minlash, aholi uchun yashash joyi atrofida ish joylari yaratish, aholining ichimlik suvi, elektr energiyasidan foydalanish imkoniyatini yanada oshirish yo'lidagi ishlarimizni izchil davom ettiramiz"<sup>1</sup>. Shuning uchun mamlakatimizda urbanizatsion taraqqiyotni ta'minlash, turmush tarzida ijtimoiy imtiyozlarni kengaytirish, kishilarda sog'lom turmush tarzi va

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. -Тошкент: "O'zbekiston", 2021. - Б.206

jamiyatda urbanistik madaniyatni yuksaltirishning ijtimoiy-falsafiy omillarini asoslab berish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2019 yil 10 yanvardagi PF-5621-son “Iqtisodiy rivojlanish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019 yil 10 yanvardagi PF-5623-son “Urbanizatsiya jarayonlarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020 yil 22 iyundagi PF-6012-son “Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2021 yil 9 dekabrda PF-32-son “Yangi O‘zbekiston” massivlarini qurish va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmonlari, 2018 yil 28 noyabrdagi PQ-4038-son “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019 yil 31 iyuldagi PQ-4409-son “Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki ishtirokida “O‘rta shaharlarni kompleks rivojlantirish” loyihasini amalga oshirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2022 yil 18 martdagi PQ-172-son “2022-2026 yillarda “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarini amalga oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 21 fevraldagi 83-son “2030 yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarori hamda sohaga oid boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi<sup>2</sup>.** Tahlillar va izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, urbanizatsiya jarayonlari va ularning muammolarini o‘rganish dunyoning ko‘plab davlatlarida jiddiy e‘tibor berilayotgan tadqiqot mavzularidan hisoblanadi. Urbanizatsiya taraqqiyotining ijtimoiy-falsafiy, siyosiy, iqtisodiy va prakseologik muammolarini o‘rganishda jahonning yetakchi ilmiy tadqiqot markazlari, jumladan, University of Chicago (AQSH), Central European University (Vengriya), Graduate School of Asia Pacific Studies (GSAPS, Yaponiya), University of Cambridge (Buyuk Britaniya), University of Oxford (Buyuk Britaniya), University of Frankfurt (Germaniya), School economy and police (London), Economic Research Institute (Qozog‘iston), Institut national de la reaserche scientifique (Ispaniya), Activities of the Urban Scientific Expertisi Centres

---

<sup>2</sup> Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi <https://www.uchicago.edu/>; <https://www.ceu.edu/>; <https://www.waseda.jp/fire/gsaps/en/>; <https://www.cam.ac.uk/>; <https://www.conted.ox.ac.uk/>; <https://www.frankfurt-university.de/>; <https://www.eri.com/>; <https://inrs.ca/>; <https://www.unescap.org/>; <https://www.ined.fr/en/>; <https://www.demogr.mpg.de/en/>; <https://knowledge4policy.ec.europa.eu/>; <https://www.unl.edu/>; <https://www.bib.bund.de/EN/>; <https://www.anu.edu.au/>; <https://msu.ru/>; [www.nuu.uz/](http://www.nuu.uz/); [www.ferpi.uz/](http://www.ferpi.uz/).

(SEC), Economic and Social Commission for Asia and the Pacific (ESCAP (UN)), Institut national d'études démographiques (Fransiya), Max Planck Institute for Demographic Research (Germaniya), The Viennese institute of a demography (Avstirya), University of Nebraska-Lincoln (AQSH), Federal Institute for Population Research (Germaniya), Australian National University (Avstraliya), Moskva davlat universiteti (Rossiya), O'zbekiston Milliy Universiteti va Farg'ona politexnika instituti tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Dunyoda urbanizatsiya jarayonlari turli aspektlarda ijtimoiy-falsafiy jihatdan o'rganish orqali urbanizatsiya darajasi, turmush tarzi, shahar ekotizimi, ekologik madaniyat, demografik jarayonlar, ijtimoiy tarmoqning ahamiyati, urbanistik madaniyatni shakllanishi, shaharsozlikda an'anaviylik va zamonaviylik masalalarini tadqiq etish jarayonida turli darajadagi ilmiy natijalar olingan: aholining migratsiya, ijtimoiy moslashuv, shaxsning shahar muhitida o'zini tutishi, etnik guruhlarining hayoti, shaharlashish jarayonlari, iqtisodiy masalalar, ekologik muammolar tadqiq etilgan University of Chicago (AQSH), migratsiyaning mintaqaviy muammolari va o'ziga hosliklari tahlil qilingan Central European University (Vengriya), mintaqalar va ularning shaharlari o'sish sur'atlari va iqtisodiy afzalliklari asoslangan Waseda University Graduate School of Asia Pacific Studies (GSAPS, Yaponiya), urbanizatsiya jarayonlari yuzaga keltiradigan muammolar, sifatli tibbiyot, kasalliklar, shaharlardagi faravonlik va infratuzilma masalalari ochib berilgan University of Cambridge (Buyuk Britaniya), barqaror urbanizatsiya uchun "yaxshi", "adolatli" va "barqaror shaharlar" haqidagi bilimlarni ishlab chiqarishga qaratilgan University of Oxford (Buyuk Britaniya), shaharlar va metropoliyalarning katta hududlari norasmiy ravishda o'sib borishi, ya'ni rasmiy rejalashtirish tartib-qoidalarsiz rejalashtirish, uy-joy va infratuzilma hamda shaharlarning o'sish sur'atlarini tahlil etilgan University of Frankfurt (Germaniya), urbanizatsiyaning iqtisodiy va jamiyat bilan bog'liq muammolari ochib berilgan School economy and police (London), shaharlarning iqtisodiy taraqqiyoti va aholi faravonligi masalalari tavsiflangan Economic Research Institute (Qozog'iston), shaharlarning ijtimoiy va madaniy voqeliklar haqidagi murakkab real muammolarni tahlil qilingan Institut national de la recherche scientifique (Ispaniya), shaharlashtirishning murakkab muammolari demografiya, iqlim, iqtisodiy faravonlik masalalari yoritilgan Activities of the Urban Scientific Expertise Centres (SEC), shaharlar taraqqiyotining ijtimoiy va iqtisodiy masalalari, tug'ilish, o'lim, faravonlik masalalari yoritilgan Economic and Social Commission for Asia and the Pacific (ESCAP (UN)), demografik muammolar va ularning yechimlari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan Institut national d'études démographiques (Fransiya), hududlarning demografik masalalari o'rganilgan va tahlillar amalga oshirilgan Max Planck Institute for Demographic Research (Germaniya), aholining ko'chishi va demografik jarayonlar mazmun va shakllari ochib berilgan The Viennese institute of a demography (Avstirya), shaharlarni sanoatlashtirish va tijoratlashtirish masalalari yoritilgan University of Nebraska-Lincoln (AQSH), demografik o'tish siyosatchilar, ma'muriyatlar, sanoat, mintaqaviy va mahalliy hukumatlar o'rtasidagi munasabatlar tahlil qilingan Federal Institute for Population Research (Germaniya), iqlim o'zgarishi, barqarorlik masalalari, sog'liqni saqlash sohasidagi yutuqlar va texnologik innovatsiyalar

muammolari yoritilgan Australian National University (Avstraliya), shaharlarning iqtisodiy muammolari faravonlik, ijtimoiy masalalar migratsiya, demografik jarayonlar masalalari ochib berilgan Moskva davlat universiteti (Rossiya), urbanizatsiyaning kelib chiqishi, rivojlanishi va sohadagi ustuvor vazifalar tadqiq qilingan O‘zbekiston Milliy Universiteti shaharlar qurilishidagi an’anaviylik va zamonaviylik masalalari ochib berilgan Farg‘ona politexnika instituti (O‘zbekiston).

Dunyoda urbanizatsiya jarayonlarini rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy jihatlarini o‘rganish bo‘yicha qator, jumladan quyidagi ustuvor yo‘nalishlarida tadqiqotlar olib borilmoqda: urbanizatsiya taraqqiyotining ijtimoiy-falsafiy muammolarini tahlil qilish va ular yuzasidan innovatsion takliflar tayyorlash; urbanizatsiyaning siyosiy jarayonlarga ta’siri va bunda hukumat hamda jamoatchilikning rolini oshirish; iqtisodiy taraqqiyotga erishish va milliy an’analarni saqlab qolishda urbanizatsiya siyosatining o‘rni va ahamiyatini yoritish; urbanizatsiyaning prakseologik muammolarini o‘rganish, tadqiq etish va keng jamoatchilikka yetkazishda ommaviy axborot vositalarining hamkorligi ochib berish; urbanistik madaniyatni rivojlantirishda fuqarolik pozitsiyalari mustahkamlash masalalarini ochib berish; G‘arb mamlakatlarining urbanizatsion tizimi, tajriba va amaliyoti, uning taraqqiyotga ta’sirini, Sharq davlatlarining urbanizatsiya sohasidagi rolini baholash; Harakatlar strategiyasi, Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyalarida belgilangan urbanizatsiya bilan bog‘liq ustuvor vazifalar va ularning istiqbollari sotsiometrik va antropometrik tahlil qilish; O‘zbekistonda shahar madaniyatini rivojlantirishning innovatsion usullar ochib berish.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Urbanizatsiya muammolari turli aspektlarda M.Veber, E.Dyurkgeym, E.Giddens, G.Zimmel kabi olimlar tomonidan, jumladan, madaniy, iqtisodiy va sotsiologik tadqiq etilgan. Bu tadqiqotlarda urbanizatsiya jarayonining ijobiy va salbiy tomonlariga e‘tibor qaratilgan. Urbanizatsiya jarayonlarida aholining turmush tarzi, iqtisodiy ahvoli, kasb-kori, bajaradigan yumushlari hamda madaniy salohiyati va imkoniyatlari D.R.Xiks, D.X.Garsiya kabi olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ochib berilgan. A.Lefevr, J.Jeykobs, K.Lunch kabilar urbanizatsiyani G‘arb mamlakatlarining rivojlanish evolyutsiyasi asosida o‘rganishgan. E.Berdjess, F.Znaneskiy, L.Virt, R. Park, U.Tomas tadqiqot ishlaridan aholining migratsiya, ijtimoiy moslashuv, shaxsning shahar muhitida o‘zini tutishi, etnik guruhlarning hayoti, shaharlashish jarayonlari, iqtisodiy masalalar, ekologik muammolar o‘rin olgan. V.Fayri va A.Xouli shaharlashish sharoitida madaniyat, qadriyatlar o‘z-o‘zini boshqarish organlari masalalarini tadqiq etishgan<sup>3</sup>.

---

<sup>3</sup> Гидденс Э. Социология. – Тошкент: Шарк, 2002. – 858 б.; Дюркгейм Э. Социология. Ее предмет, метод, предназначение. – Москва: Терра, 2008. – 400 стр.; Зimmel Г. Философия труда. Как возможно общество? Общение. Пример чистой, или формальной, социологии. – Москва: Директ-Медиа, 2007. – С.95.; Вебер М. Город. М.: Strelka Press, 2017. 252 с.; Лефевр А. // Право на город. Экономическая социология. 2023. - Т. 24. № 1. С. 55-71.; Lynch Kevin. The Image of the City. The MIT Press; Illustrated edition (June 15, 1960) P.5.; Who was Jane Jacobs? // [www.janejacobswalk.org/about-jane-jacobs-walk/meet-jane-jacobs](http://www.janejacobswalk.org/about-jane-jacobs-walk/meet-jane-jacobs).; Хикс, Д.Р. Теория экономической истории / – Москва : НП «Журнал Вопросы экономики», 2003. – 224 с; Бёрджесс, Э.У. Рост города: введение в исследовательский проект // Чикагская социология : сб. переводов / РАН. ИНИОН. Центр социальных научно-информационных исследований. Отдел социологии и социальной психологии ; сост. и пер. с англ. В. Г. Николаев ; отв. ред. Д. В. Ефременко. М. : ИНИОНРАН. 430 с; Вирт, Л. Человеческая экология РАН. ИНИОН. Центр социальных научноинформационных исследований. Отдел социологии и

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi olimlaridan Yu.A. Levada, L.B. Kogan, A.S. Axiyezer, V.I. Loktayev va O.N. Yanitskiylar urbanizatsiya nazariyasining kelib chiqishida katta rol o'ynaganlar. Ular urbanizatsiya tushunchasiga davr nuqtai nazaridan ta'rif berdilar va mohiyatini ochib berishga harakat qildilar. Grinin va Korotayev urbanizatsiya va davlatchilik evolyutsiyasi o'rtasidagi chambarchas aloqa borligini aniqlashdi<sup>4</sup>.

O'zbekistonda urbanizatsiya jarayonlarini rivojlantirishga oid konseptual g'oyalar birinchi Prezident I.A.Karimov, Prezident Sh.M.Mirziyoevning asarlarida ochib berilgan. Shu nuqtai nazardan urbanizatsiya jarayoni mamlakat taraqqiyotining muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'lmoqda. Mamlakatimizda urbanizatsiya jarayonlarini rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy omillariga oid ilmiy tadqiqotlar ko'p bo'lmasa-da, uning ba'zi jihatlari tadqiq etilgan. Masalan, A.A.Xuseynova, Z.Qodirova, X.E.Xolmuminovlar tomonidan migratsiya masalalariga tizimli yondashuv asoslari o'rganilgan. H.Yu. Salomova, G.S.Rahimova shaharlardagi ekologik muammolar va ularning yechimlari xususida tadqiqot olib borgan. N.U.Usmonov shahar va qishloq munosabatlarining integratsiyalashuvi masalasini tadqiq etgan. A.Qo'ziyev, A.Mirzaahmedov tadqiqotlarida, Q.Nazarov, X.Ismoilov, M.Inomova, K.Maxmudov, U.Maxkamov, A.Munavvarov, M.Rasulova, E.Yusupov, S.Choriyev, M.Hajiyeva, B.Tuychiyev, I.Saifnazarov, N.Nazarov, N.Z.Hayotova shaharlashish jarayonining ma'naviy, iqtisodiy, siyosiy va ahloqiy jihatlarning ijobiy va salbiy oqibatlari hamda ma'naviyat va milliy qadriyatlarga ta'siri hamda S.B.Shodmonova, Sh.Rahmatullayev transformatsiya masalalarini amaliy va nazariy jihatdan tadqiq etishgan<sup>5</sup>.

---

социальной психологии ; пер. с англ. В. Г. Николаев ; отв. ред. Л. В. Гирко. М. : ИНИОН РАН. 244 с. С. 39–50.; Парк, Р. Э. (1999) Экология человека // Теория общества: фундаментальные проблемы : сборник / под ред. А. Ф. Филиппова. М. : КАНОН-прессЦ; Кучково поле. 416 с. С. 384–400.;

<sup>4</sup> Яницкий О.Н. Теория урбанизации и информационного роста городов 1960-1970-х годов (Личная ретроспекция) // *Sotsiologicheskiye nauki. cyberleninka.ru/article* С.75-89.; Коротаев А.В., Гринин Л.Е. Урбанизация и политическое развитие мир-системы: сравнительный количественный анализ // *Ж. История и математика*. 2007. № 2. С. 119-188. Ахизер А.С., Коган Л.Б., Яницкий О.Н. Урбанизация, общество и научно-техническая революция // *Вопросы философии*. – М., 1969. – № 2. – С. 43–53.; Коган Л.Б., Локтаев В.И. Некоторые социологические аспекты моделирования городов // *Вопросы философии*. – М., 1964. – № 9. – С. 135–138. Левада Ю.А. Сознание и управление в общественных процессах // *Вопросы философии*. – М., 1966. – № 5. – С. 63. Коротаев А. В., Гринин Л.Е. Урбанизация и политическое развитие мир-системы: сравнительный количественный анализ // *Ж. История и математика*. 2007. № 2. С. 119-188

<sup>5</sup> Karimov I.A. Asarlar to'plami, 1-24 jildlar. – Toshkent: O'zbekiston, 1996-2015 yy.; Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild.– Toshkent: O'zbekiston, 2017. – B. 592; Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2018. – B.508; Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. – B. 400; Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. – Toshkent. O'zbekiston, 2020. – B. 456 Qurbonov P.R. O'zbekistonda urbanizatsiya jarayonlari rivojlanishining asosiy bosqichlari. // *FarDU. Ilmiy Xabarlar*. – 2023. №3 B.150 Xuseynova A.A. Globalizatsiya va migratsiya // *Jamiyat va boshqaruv*. □ 2008. □ № 2. B. 28-29.; Xuseynova A.A. Migratsiyaning axloqiy jihatlari // *Falsafa va huquq*. – 2008. – №4. – B. 48 – 49.; Xolmuminov X.E. Buxoro amirligi janubiy hududlaridagi tarixiy demografik jarayonlar (XIX asr ikkinchi yarmi - XX asr boshlari. Surxondaryo va Qashqadaryo vohalari misolida) dissertatsiya avtoreferati. T.: 2023. B.74.; 3.A. Kodirova. Ishchi kuchini eksport kiluvchi mamalakatlarda mexnat migratsiyasining xalqaro mikesda tartibga solinishi // "Iqtisodiyet va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. - 2015 № 3 B.1-9 Rahimova G.C. XX asr 50-90 yillari Farqona vodiysi sanoat rivojlantirishining ekologik holatiga ta'biiri: Tarix fanlari b'uyicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati, 2018. - 47 b. Salomova X.Yu. Ijtimoiy ekologiya asoslari. Toshkent: "Fan va Texnologiya" – 2004.–B. 3. Hayotova N.Z. Buxoroda zamonaviy shahar madaniyati (1991-2021 yillar) tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi avtoreferati. Buxoro.

Yuqoridagi tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, urbanizatsiya davlatning o'z fuqarolari va jamiyat taraqqiyotini ta'minlashida katta ahamiyatga ega. Olib borilgan tadqiqotlar klassifikatsiyasi shuni ko'rsatadiki, mazkur tadqiqotlarda urbanizatsiya jarayonining ma'naviy, iqtisodiy, siyosiy jihatlarining ayrim qismlari tadqiq etilgan. Ushbu dissertatsiya Yangi O'zbekiston sharoitida urbanizatsion jarayonlar rivoji bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy va falsafiy omillarni tahlil etish, bu borada yaxlit kompleks ilmiy tadqiqot amalga oshirilishi bilan ahamiyatlidir.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya Farg'ona politexnika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Yangi O'zbekistonda urbanizatsiya siyosati va uni rivojlantirishning dolzarb muammolari (2022-2025-yillar)" mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Yangi O'zbekiston sharoitida urbanizatsiya jarayonlari rivojiga ta'sir ko'rsatadigan omillarning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

urbanizatsiya tushunchasining zamonaviy talqinini, rivojlanish bosqichlarini tadqiq etish;

ekologik muammolarni bartaraf qilish sabablari hamda ekologik madaniyatni rivojlantirish omillarini aniqlash;

aholi bandligini ta'minlashning zamonaviy shakllari, aholining ijtimoiy demografiyasiga ta'sirini ochib berish;

urbanizatsiya sohasiga oid davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarining turmush tarzini sog'lomlashtirishdagi imkoniyatlarini asoslab berish;

shaharlarni obodonlashtirishda an'anaviylik va zamonaviylik uyg'unligini ta'minlash, zamonaviy shaharlar barpo qilish dasturini amalga oshirish muammolarini tadqiq etish;

urbanistik taraqqiyotga erishish, urbanizatsiya jarayonlarini faollashtirish hamda ijtimoiy-ishbilarmonlik hududlarini kengaytirish zaruratini asoslab berish;

Yangi O'zbekistonda urbanizatsion rivojlanish madaniyatini shakllantirishga, ijtimoiy taraqqiyotda aholi farovonligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni takomillashtirish uchun taklif-tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning ob'yekti** sifatida urbanizatsiya rivoji tufayli yuzaga keladigan muammolar, ustuvor vazifalar va ularni amalga oshirish bilan bog'liq jarayonlar tanlab olingan.

---

2023 B.52.; Xajiyeva M. Globallashuv asoslari. -Urganch, 2020. –B.228.; Чориев С. Индивидуализм – аср балоси ва жамиятимиз тараққиётига хавф сифатида // Фалсафа ва ҳуқуқ, 2021, №1.- Б. 39-43.; Саифназаров И. Ватанпарварликнинг миллий ва умуминсоний жиҳатлари. Тошкент: Меҳнат 1997. Б.36.; То'uchiev V.T., Ergashev I.E., Muhammadieva O.M., Xo'jaev M.I. Milliy g'oya: O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. - Toshkent: "Innovatsion – Ziyo", 2020. - B.112.; Назаров Қ. Жаҳон фалсафаси қомуси. Икки томлик. - Тошкент: Ўзб.файл. миллий жам. нашр, 2019. Б.852.; Тожиева З.Н. Ўзбекистон аҳолиси: ўсиши ва жойланиши (Монография). – Т.: «Fan va texnologiya», 2010. – 276 б.; Sayidov Q.B. Shahar urbanizatsiyasi va uning ijtimoiy-madaniy rivojlanishga ta'siri. - Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Vuxoro. - 2023. 52 b. Шодманова С.Б. Ўзбекистон шаҳарларида трансформация жараёнлари (1917- 1941). Тошкент, 2015. – 333 б.; Раҳматуллаев Ш. Фарғона водийси шаҳарларида иқтисодий трансформация жараёнлари (1991-1996 йиллар). - Тошкент, 2017. – 200 б

**Tadqiqotning predmetini** O'zbekistonda urbanizatsiya sohasida olib borilayotgan tarkibiy islohotlar, barqaror rivojlanishga yetaklovchi omillar, urbanizatsiya darajasini aniqlovchi ko'rsatkichlar, ularni shakllantirish metodologiyalarini tadqiq etish tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada analiz va sintez, tizimli funktsional yondashuv, fanlararo diskurs, qiyosiy tahlil, kontent analiz va sotsiodinamik tahlil kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

jamiyat hayotida shaharlar rolining ortib borishi aholi bandligini ta'minlashning an'anaviy va zamonaviy shakllarining transformatsiyasiga, boshqaruvda ishlab chiqarish kuchlarining ortishiga, aholi ijtimoiy demografiyasiga ijobiy ta'siri etishiga va kishilarda zamonaviy turmush madaniyatini rivojlantirishga olib kelishi sabab va oqibat dialektikasi asosida ochib berilgan;

zamonaviy marketing institutlari tomonidan shahar aholi punktlarini yuksaltirilish, jamiyatda sanoatlashish, tijoratlashish tendensiyalarini rivojlantirilishi orqali kishilar kundalik hayotida bandlik imkoniyatlarini oshib borishi, turmush tarzida ijtimoiy imtiyozlarni (sifatli ta'lim, farovonlik, sanitariya va uy-joy, sog'liqni saqlash, dam olish maskanlari) kengayishiga olib kelishi asoslangan;

zamonaviy shaharlar loyihasida SMART CITY dasturini amalga oshirish shaharlarni rivojlantirish jarayonida an'anaviylik va zamonaviylik uyg'unligini ta'minlash, jamiyatda ijtimoiy hamkorlik, qadriyatlarni asrash, mehmondo'stlik, madaniy merosdan foydalanish imkoniyatlarini oshirishi aniqlashtirilgan;

zamonaviy jamiyatda urbanistik taraqqiyotni ta'minlashda ommaviy axborot vositalarining shaffoflik, intensivlik kabi muloqot komponentlarini rivojlantirishi, urbanizatsiya jarayonlarini faollashtirish hamda ijtimoiy-ishbilarmonlik hududlarini kengaytirishi, hudud ijtimoiy va madaniy muammolarini barataraf etishda parlament bilan aloqalar o'natishga xizmat qilishi kabi praksiologik xususiyatlari ochib berilgan;

migratsiyaning ob'yektiv qonuniyatlari asosida kambag'allik, ishsizlik, inson huquqlarining poymol qilinishi, kelajakka nisbatan umidsizlik, qulay sharoit izlash kabi omillarni kamaytirish, zamonaviy turmush madaniyatini transformatsiya qilish, jamiyatda urbanistik madaniyatni yuksaltirishda begonalashuv, loqaydlik, mas'uliyatsizlik, kosmopolitizm kabi xususiyatlarni bartaraf etish imkoniyatlari takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

urbanizatsiyaning kontent tahlili asosida, ekologik ta'lim, ekologik ong va ekologik madaniyati rivojlantirishning ekologik xavfsizlik va atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan fanlarni ta'lim tizimiga kiritish, ekologik ta'lim sohasiga doir tadqiqotlarni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish kabi yo'nalishlari zamonaviy turmush madaniyatini shakllantirishda muhim rol o'ynashi asoslab berilgan;

urbanizatsion jarayonlarda kuzatiladigan begonalashuvning rivojlanishi, to'yinganlik, yangi tuyg'ularni izlash va shu asosda buzuqlik va eksantriklik tendensiyasi, ijtimoiy mas'uliyatning yo'qligi va yordam ko'rsatish tuyg'usining

zaiflashishi kabi destruktiv oqibatlarni urbanistik madaniyatni yuksaltirish asosida bartaraf etish imkoniyatlari va urbanizatsiya barqarorligini ta'minlashda halollik, rostgo'ylik, tashabbuskorlik, hamjihatlik va vatanparvarlikni shakllantirish zarurati ochib berilgan;

Yangi O'zbekistonda urbanizatsiya madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim-tarbiyani maktab va OTM o'quv dasturlariga kiritish, mobil ilovalar yaratish, urbanizatsiya strategiyalarini ishlab chiqishda jamoatchilik nazoratini o'rnatish, hamkorlik madaniyatini shakllantirish, zamonaviy infratuzilmani aholi punktlarida yaratish, tashabbuslar uchun rag'batlar loyihasini amalga oshirish va qat'iy urbanizatsion siyosat yuritish zarurati asoslab berilgan;

yangi taraqqiyot bosqichida urbanizatsion jarayonlarni yuksaltirishning ijtimoiy-ma'naviy imkoniyatlarini takomillashtirishga oid teleko'rsatuvlar va maxsus telekanal tashkil etish, shaharlashtirish muammolarini bartaraf etishda xorijiy mutaxassislarni jalb etish, ijtimoiy tarmoqlarida shaharlashtirish muammolarini yoritib borish faoliyatini qo'llab-quvvatlash kabi amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqot jarayonida qo'llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalardan olinganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar, respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o'tkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari yuzasidan berilgan xulosalar, takliflar ishlab chiqilganligi va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tadqiqotdagi yondashuvlar va chiqarilgan xulosalardan urbanizatsiya jarayonlarini tartibga solish, demografik tendensiyalarni aniqlashga qaratilgan institutsional chora-tadbirlarni belgilashda, jahon amaliyotini hisobga olgan holda urbanizatsiya tizimini xalqaro standartlarga moslashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni olib borishda, shuningdek, xalqaro reyting talablariga muvofiq metodologiyani takomillashtirishda nazariy-metodologik asos sifatida, shu bilan birga mamlakatimizda shaharlashtirish jarayonidagi islohotlarni amalga oshirishni yanada takomillashtirish va maxsus ilmiy konsepsiyalar hamda metodik qo'llanmalar yaratishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shaharsozlik, axloqiy va estetik didni shakllantirish, aholi turmush madaniyatini yuksaltirish, qishloq infratuzilmasini zamonaviylashtirish jarayonlarida, shuningdek, 2030 yilgacha O'zbekistonda urbanizatsiyani rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishda, suburbanizatsiya yo'li bilan qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha takliflarni ishlab chiqishda, urbanizatsiyani tartibga solishni ta'minlash bo'yicha "Yo'l xarita"da belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash va ommaviy axborot vositalarida urbanizatsiya masalalariga oid mediamateriallar tayyorlash, xalqaro va milliy ilmiy anjumanlar, simpoziumlar, konferensiyalar, seminarlar va boshqa tadbirlarni tashkil etishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Yangi O'zbekiston sharoitida urbanizatsion jarayonlar rivojining ijtimoiy-falsafiy omillarini tadqiq etish jarayonida olingan natijalar asosida:

jamiyat hayotida shaharlar rolining ortib borishi aholi bandligini ta'minlashning an'anaviy va zamonaviy shakllarining transformatsiyasiga, boshqaruvda ishlab chiqarish kuchlarining ortishiga, aholi ijtimoiy demografiyasiga ijobiy ta'siri etishiga va kishilarda zamonaviy turmush madaniyatini rivojlantirishga olib kelishiga doir nazariy umumlashmalar va xulosalardan Farg'ona davlat universitetida bajarilgan, OT-F-1-100 raqam "Imkoniyati cheklangan bolalar ijtimoiy-madaniy faoliyatining badiiy-ijodiyot vositalari asosida nazariy va amaliy takomillashuvi" (2017-2020 yy) amaliy loyihani bajarishda va loyiha doirasida nashr etilgan "Barkamol insonni tarbiyalash – davr talabi" ko'rsatmasini tayyorlashda foydalanilgan (Farg'ona davlat universitetining 2023-yil 28-avgustdagi 03-3675-son ma'lumotnomasi). Natijada, loyihaning ilmiy qimmatini oshirish va sohaga oid vazifalar ijrosini ta'minlashga xizmat qilgan;

zamonaviy marketing institutlari aholi punktlarini yanada yuksaltirib jamiyatda sanoatlashish, tijoratlashish tendensiyalarini rivojlantirish orqali kishilar kundalik hayotida bandlik imkoniyatlarini oshirib borishi, turmush tarzida ijtimoiy imtiyozlarni (sifatli ta'lim, farovonlik, sanitariya va uy-joy, sog'liqni saqlash, dam olish maskanlari) kengayishiga olib kelishiga oid taklif va tavsiyalardan "O'zbekiston tarixi" telekanalida 2023-yil davomida e'firoga uzatilgan "Taqdimot" teleko'rsatuvlari ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston teleradiokanali" davlat muassasasining 2023-yil 25-sentabrdagi 06-32-1607-son ma'lumotnomasi). Natijada, teletomoshabinlarning turmush tarzi o'zgarishi va madaniyatini yuksaltirishga, ularning mamlakatimizni rivojlangan davlatlar qatoridan munosib o'rin olishi haqidagi ilmiy tasavvur va tushunchalarining boyishiga hamda ko'rsatuvlarning ilmiyligi va ommabopligini oshirishga xizmat qilgan;

zamonaviy shaharlar loyihasida SMART CITY dasturini amalga oshirish shaharlarni rivojlantirish jarayonida an'anaviylik va zamonaviylik uyg'unligini ta'minlash, jamiyatda ijtimoiy hamkorlik, qadriyatlarni asrash, mehmondo'stlik, madaniy merosdan foydalanish imkoniyatlariga doir taklif va tavsiyalaridan O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasining 2020-2024 yillarga mo'jallangan saylovoldi dasturida keltirilgan "6.1 bandi milliy madaniyat hamda ma'naviyatni rivojlantirish, milliy urf-odat an'ana va qadriyatlarni saqlash va boyitish sohasi"dagi vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi Markaziy Kengashining 2023-yil 21-sentabrdagi 02/05-55-son ma'lumotnomasi). Natijada, partiya tizimidagi xodimlar va saylovchilarning milliy madaniyat hamda ma'naviyatni rivojlantirish, milliy urf-odat an'ana va qadriyatlarni saqlash va boyitish sohasidagi bilim va ko'nikmalarini oshirishga hamda mafkuraviy targ'ibot ishlarining ommabopligini oshirishga xizmat qilgan;

zamonaviy jamiyatda urbanistik taraqqiyotni ta'minlashda ommaviy axborot vositalarining shaffoflik, intensivlik kabi muloqot komponentlarini rivojlantirishi, urbanizatsiya jarayonlarini faollashtirish hamda ijtimoiy-ishbilarmonlik hududlarini kengaytirishi, hudud ijtimoiy va madaniy muammolarini barataraf etishda parlament bilan aloqalar o'rnatishga xizmat qilishiga oid ilmiy yangilik va tavsiyalardan O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasining 2020-2024 yillarga

mo'jallangan saylovoldi dasturida keltirilgan "6.1 bandi milliy madaniyat hamda ma'naviyatni rivojlantirish, milliy urf-odat an'ana va qadriyatlarni saqlash va boyitish sohasi"dagi vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokrattik partiyasi Markaziy Kengashining 2023-yil 21-sentabrdagi 02/05-55-son ma'lumotnomasi). Natijada, partiya tizimidagi xodimlar va saylovchilarning milliy madaniyat hamda ma'naviyatni rivojlantirish, milliy urf-odat an'ana va qadriyatlarni saqlash va boyitish sohasidagi bilim va ko'nikmalarini oshirishga hamda mafkuraviy targ'ibot ishlarining ommabopligini oshirishga xizmat qilgan;

migratsiyaning obyektiv qonuniyatlari asosida kambag'allik, ishsizlik, inson huquqlarining poymol qilinishi, kelajakka nisbatan umidsizlik, qulay sharoit izlash kabi omillarni kamaytirish, zamonaviy turmush madaniyatini transformatsiya qilish, jamiyatda urbanistik madaniyatni yuksaltirishda begonalashuv, loqaydlik, mas'uliyatsizlik, kosmopolitizm kabi xususiyatlarni bartaraf etish imkoniyatlariga doir ilmiy xulosalar va takliflardan O'zbekiston Yoshlar ittifoqining 2023-yil ikkinchi yarim yillik ish rejasi 27-band mahallalarda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda ularning intellektual jihatdan kamol topishini va ma'naviy rivojlanishini ta'minlash va 37-band mahallalarda yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, iqtidori, iste'dodi va tashabbuslarini rag'batlantirish hamda hayotda o'z o'rnini topishlariga ko'maklashish bo'yicha belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (O'zbekiston Yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashining 2023-yil 26-sentyabrdagi 04-13/813-son ma'lumotnomasi) Natijada, yoshlarning axloqiy madaniyati yuksalishi, yashayotgan hududiga nisbatan vatanparvarlik va daxldorlik xissini ortishi, o'zaro munosabatlarida do'stona muhitni yaratishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 13 ta jumladan, 3 ta xalqaro va 10 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 31 ta ilmiy ish, jumladan, bitta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 14 ta ilmiy maqola (9 ta respublika va 5 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to'rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning asosiy matni 246 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "**Kirish**" qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, mavzu bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi tavsiflangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti, predmeti, tadqiqotda qo'llanilgan usullar yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi,

amaliy natijalari, natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan hamda dissertatsiya natijalarining joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e'lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Urbanizatsion jarayonlarni tadqiq etishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlanib, unda urbanizatsiya tushunchasining mazmun-mohiyati, xususiyatlari va namoyon bo'lish shakllari, shuningdek urbanizatsiya jarayonlarining rivojlanish bosqichlari va ularning falsafiy-tarixiy tahlillari amalga oshirilgan.

Urbanizatsiya (lotincha urbanus - shaharcha) - bu shaharlarning rivojlanishi, shahar madaniyati va “shahar munosabatlari”ning jamiyat taraqqiyotidagi roli, shahar aholisining qishloq aholisiga nisbatan ko'payishi va shaharlar tashqarisida shakllangan yuqori madaniyat<sup>6</sup>. Sodaroq aytganda shahar madaniyatining tarqalishini urbanizatsiya deb atash mumkin.

Dissertant fikricha, hozirgi kunda urbanizatsiya tushunchasi ko'plab fan va ularning tarmoqlarida o'rganilayotgan bo'lib, olimlar ushbu tushunchaga turlicha ta'riflar bergan. Ushbu tushuncha XIX va XX asrlarda o'rganilib kelinayotgan bo'lib, bu bo'yicha turli nazariyalar shakllanganligi esa mazkur muammo ancha chuqur tarixiy ildizlarga ega ekanligini ko'rsatadi. 2000-yillar boshlarida o'tkazilgan tadqiqotlar natijalariga tayanib, Grinin va Korotayev urbanizatsiya va davlatchilik evolyutsiyasi o'rtasidagi chambarchas aloqa borligini aniqlaganlar<sup>7</sup>. XIX-XX asrlardagi chet el olimlarining urbanizatsiyaga oid tadqiqot ishlarida aholining migratsiya, ijtimoiy moslashuv, shaxsning shahar muhitida o'zini tutishi, etnik guruhlarning hayoti va shaharlashish jarayonlari o'z aksini topgan. Bunga Chikago maktabi vakillari E.Berdjess, F.Znaneskiy, L.Virt, R.Park, U.Tomas misol bo'ladi<sup>8</sup>. Ularning davomchilari V.Fayri va A.Xouli o'z diqqatlarini shaharlashish sharoitida madaniyat, qadriyatlar va sotsiomadaniy institutlar masalalariga qaratishgan<sup>9</sup>. A.Qo'ziev, A.Mirzaahmedov, N.Usmonov nomzodlik dissertatsiyalarida shaharlashish jarayonining aholi milliy qadriyatlariga ta'siri nazariy jihatdan o'rganilgan<sup>10</sup>. F.Turg'unboevning doktorlik dissertatsiyasida shahar va qishloq munosabatlari tahlil qilingan<sup>11</sup>.

Dissertatsiyada urbanizatsiyaning falsafiy ta'rifiga ko'ra, u jamiyatni qishloq xo'jaligiga asoslangan tizimdan zamonaviy, sanoatlashgan tizimga aylantirish bilan bog'liq bo'lgan murakkab va ko'p qirrali tushuncha ekanligi asoslab berilgan. Falsafiy nuqtai nazardan, urbanizatsiya jamiyatning ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy va siyosiy manzarasini boshqaradigan o'zgarishlar jarayoni sifatida ko'rish mumkin.

---

<sup>6</sup> Холмирзаев Н.Н. Урбанизация тушунчаси ва унинг тадқиқи. // О'зМУ хабарлари. - Toshkent, 2022. - №12. - В.192.

<sup>7</sup> Коротаев А.В., Гринин Л.Е. Урбанизация и политическое развитие мир-системы: сравнительный количественный анализ // История и математика. – Москва, 2007. - № 2. -С.119-188.

<sup>8</sup> Луков В.А., Тихомиров Д.А. Чикагская социологическая школа: начало качественной стратегии в эмпирической социологии. // Горизонты гуманитарного знания. – Москва, 2019. -№1. -С. 89-107.

<sup>9</sup> Qarang: Firey W. Land Use in Central Boston. Текст. / W. Firey. - Cambridge.: Harvard University Press, 1947. - 367 p.

<sup>10</sup> Qarang: Мирзахмедов А. Ўзбекистон ССРда урбанизация жараёнларининг ўзига хос хусусиятлари (лекторга ёрдам). - Тошкент, 1991. - Б. 10.

<sup>11</sup> Тогаева, А. Ўзбекистонда урбанизация жараёнлари ва шаҳар маданияти муаммолари (1950-1990 йиллар). – Тошкент: Yangi nashr, 2017. – В.25.

Bu odamlar, resurslar va infratuzilmani iqtisodiy, hamda madaniy faoliyat markazlari bo'lgan shaharlarga to'plashni o'z ichiga oladi. Shu nuqtai nazardan faylasuflar urbanizatsiyaning inson mavjudligi va jamiyatga ta'sirini o'rganadilar. Ba'zi olimlar urbanizatsiyaning salbiy oqibatlarini, masalan, jamoaning yo'qolishi, tengsizlikning kuchayishi va tabiiy resurslardan beshavqat foydalanishni ta'kidlaydilar. Boshqa olimlar esa urbanizatsiyaning iqtisodiy imkoniyatlarining ortishi, bilim va madaniyatning yuksalishi, inson erkinligini oshirish kabi ijobiy tomonlarini e'tirof etadilar<sup>12</sup>.

Urbanizatsiya mazmuni va mohiyati sifatida shaharlarning o'sishi va rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan murakkab va xilma-xil jarayonlar aks ettiriladi. Biroq, ilmiy foydalanishda keng tarqalgan bu tushuncha hali aniq ta'rifga ega deb bo'lmaydi. Urbanizatsiya mazmunan to'g'ridan-to'g'ri shaharlarning paydo bo'lishi va shakllanish jarayonlari bilan ham, shaharlarning shakllanishiga hamroh bo'lgan yoki bilvosita aloqada bo'lgan jarayonlar bilan bog'liq bo'lgan turli xil hodisalarni ifodalaydi. So'nggi yillarda urbanizatsiya to'g'risida umumlashma nazariy ishlar paydo bo'ldi, unda urbanizatsiya jarayonining mohiyatini har tomonlama sharhlab berishga harakat qilindi. Ammo mazkur sohada hamon yetarlicha falsafiy qarashlarning mavjud emasligi ushbu tushunchani o'rganishning nazariy muammolari mavjudligini isbotlaydi.

Dissertatsiyada urbanizatsiya tushunchasiga zamonaviy nuqtai nazardan ta'rif berish ehtiyoji yuzaga kelganligi ta'kidlanib, mazkur tushunchaga quyidagicha ta'rif berilgan: *Urbanizatsiya - ko'p sonli odamlarning qishloqlardan doimiy ravishda nisbatan cheklangan hududlarga, ya'ni shaharlarga ko'chishi, to'planishi, doimiy manfaatlar to'qnashuviga kirishishlari jarayonlari hisoblanib, bunda shaharlar rolining ortib borishi hamda davlat va jamiyat rivoji yo'lida qilingan islohotlarning samarasi yoki zararlarini ko'rish mumkin.*

Tadqiqotchi fikricha, hozirgi vaqtda urbanizatsiyaning qator namoyon bo'lish shakllari yoki ko'rnishlari mavjud bo'lib bular orasida soxta urbanizatsiya, rurbanizatsiya va suburbanizatsiya katta o'ringa ega. Soxta urbanizatsiya - bu shaharlashuvning ko'rinishi bo'lib, eng yirik shaharlarning o'sishi ayrim hollarda "soxta" urbanizatsiya tarzida, aniqrog'i, shahar chekkalarida qishloqdan ko'chib kelgan past daromadli aholi uy-joylarining zichlashib borishi ko'rinishida kechadi. Hozirgi vaqtda Osiyo va Afrika qit'alaridagi qator rivojlanayotgan mamlakatlar urbanizatsiyaning ana shu bosqichini boshdan kechirmoqda. O'zbekistonda ham 2008-yillarda shu kabi siyosat mavjud bo'lgan va bu holatdan hozirda voz kechilgan. Soxta urbanizatsiyada shahar aholisining tez o'sishi shahar funksiyalarining mutanosib o'sishi bilan birga kechmaydi, bu shahar fuqarolarining madaniy va iqtisodiy muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, ammo, yangi fuqarolarni kiritish darajasini ta'minlay oladi.

Suburbanizatsiya - inglizcha suburb - shahar atrofi deya tarjima qilinadi. Bu yirik shaharlarning chekka hududlarini rivojlantirish va aholini shahar atrofiga

---

<sup>12</sup> Qurbonaliyeva H.I. O'zbekistonda urbanizatsiya jarayonlarining sotsiologik tahlili // ORIENSS. 2023. - №5. - B.865.

ko‘chirish jarayoni<sup>13</sup>. Suburbanizatsiya natijasida shahar aglomeratsiyalari shakllanmoqda. Suburbanizatsiya sharoitida shahar markazlari bilan taqqoslaganda shahar atrofi aholisining o‘shish sur‘ati yuqori ekanligini ko‘rish mumkin. Xuddi shunday holat mamlakatimizda yo‘ldosh shaharchalarni tashkil etish jarayoni bilan birga kechmoqda.

“Rurbanizatsiya” - aholining qishloqdan shaharga ko‘chishi va qishloqlarning shaharga aylanishi jarayonini bildiradi<sup>14</sup>. Bu global urbanizatsiya jarayonining ajralmas qismi va ko‘rinishi bo‘lib, aholi va shaharlar sonining ko‘payishi bilan bog‘liq. Rurbanizatsiya ham ijobiy, ham salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Bu *bir tomondan*, iqtisodiy taraqqiyotga, aholi turmush sifatini yaxshilashga hissa qo‘shishi mumkin bo‘lsa, *ikkinchi tomondan*, rivojlanish, transport, ekologik va ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Dissertant ta‘kidicha, urbanizatsiyaga xos xususiyatlarni bilish muhim ahamiyat kasb etadi. Urbanizatsiyaning asosiy xususiyati bu shaharlar tarmog‘ining rivojlanishi, yangi shahar posyolkalarining paydo bo‘lishi va mavjudlarining o‘shishidir. Shaharlar hududlarning iqtisodiy va ijtimoiy o‘zgarishlari, ularning o‘lchamlari, va ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati urbanizatsiyaga bevosita bog‘liqdir. Urbanizatsiya bundan tashqari yana ikki xususiyati o‘zaro yo‘naltirilgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar asosida yuzaga keladi. *Birinchisi*, shaharlarning o‘zi va ularning funksiyalarining o‘shishi va rivojlanishi, ularning faoliyatining barcha sohalarida ko‘proq ishchilarni jalb qilishidir. *Ikkinchisi*, qishloq xo‘jaligidan texnika rivojlanib borishi bilan ishchi kuchini bo‘shatish, bu qishloq aholisining kamayishiga olib keladi.

Dissertatsiyada urbanizatsiyaning hududiy xususiyatlari bir qator jihatlar bilan tavsiflangan: o‘lchamlari (kichik, o‘rta, yirik va mega shaharlar), funksional turi (sanoatlashgan, madaniy, harbiy, turistik, kurort) va dinamikasi (tez o‘sayotgan, rivojlanishdan to‘xtab qolgan) jihatidan har xil bo‘lgan shahar aholi punktlari o‘rtasidagi nisbat hisoblanadi. Shuningdek shaharlarning aholini jalb qilish zonasining kattaligi, shahar va mazkur zona o‘rtasidagi aloqalarning zichligi mazkur jarayonning asosiy xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Bunda muammoning yangiligi va murakkabligi tufayli shu kabi tipologiya hali ishlab chiqilmagan. Ushbu ilmiy muammoni hal qilishda shahar tuzilishi va hududiy-shahar tuzilishi kabi xususiyatlardan foydalanish o‘rinlidir.

Shahar madaniyatining shakllanishi ham xuddi jamiyat taraqqiyotida bo‘lgani kabi uzluksiz taraqqiyot yo‘li bilan rivojlangan. Bu qonuniyatga ko‘ra, shaharsozlik madaniyatining shakllanishi, uzoq, bosqichma-bosqich davrlarni bosib o‘tgan. So‘nggi izlanishlarga natijalariga ko‘ra, mamlakatimizda miloddan avvalgi II ming yillikga borib taqaladigan shaharoldi (protoshahar) madaniyatilari aniqlangan. Binobarin, ushbu davrni ilk shaharlarning paydo bo‘lish davri sifatida qabul qilish ratsionalroqdir.

---

<sup>13</sup> Эпштейн А.С. Комментарий к Стратегии массового строительства жилья до 2020 г. //«Строительство, архитектура, недвижимость». - Москва, 2008. - №41(57). -С.8

<sup>14</sup> Бобков В.Н. Особенности уровня жизни городских и сельских социально-демографических групп // АПК: экономика, управление. – Москва, 2022. – № 5. – С. 70-82.

Tadqiqotda urbanizatsiyaning rivojlanish bosqichlarini tarixchi, sotsiolog, iqtisodchi, geograf olimlar o'rganganligi, ular qatoriga geograf olim A.Soliev, iqtisodchi Jon Gibbs va boshqalar misol sifatida keltirilgan. Geograf olim A.S.Soliev 2018-yilda nashr etilgan "Shaharlar geografiyasi" o'quv qo'llanmasida mamlakatimizdagi urbanizatsiya bosqichlarini miloddan avvalgi III-II ming yillikdan 1917-yilgacha birinchi bosqich, qolgan davrlarni 1917-yildan boshlab 4 ta umumiy 5 bosqichga bo'lib o'rganadi<sup>15</sup>. Amerikalik olim Jon Gibbsga ko'ra, mamlakat iqtisodiy rivojlanish darajasiga va mamlakatda hukmron bo'lgan aholi takror ishlab chiqarish turiga qarab, urbanizatsiyaning besh bosqichi farqlanadi<sup>16</sup>.

Tadqiqotchi olib borgan muammo yuzasidan ijtimoiy-falsafiy tahlil asosida urbanizatsiyaning rivojlanish bosqichlarini 4 xil shaklda izohlash mumkinligini qayd etgan:

1. Tarixiy davrlashtirishga ko'ra bosqichlarga bo'lish;
2. Aholi tarqalishiga ko'ra bosqichlarga bo'lish;
3. Iqtisodiy rivojlanishiga ko'ra bosqichlarga bo'lish;
4. Aholining ulushiga ko'ra bosqichlarga bo'lish.

Ta'kidlash joiz, urbanizatsiyaning rivojlanish bosqichlarini o'rganish bir qator nazariy muammolarni keltirib chiqardi. Buning asosiy sabablaridan biri sifatida o'rganilgan ma'lumotlarning yetarlicha emasligini keltirish mumkin. Shu bilan birga mamlakatimizda mazkur soha bilan bog'liq holatdagi tadqiqot ishlarining kamligi grantlarning mavjud emasligi ilmiy yechimlar bo'yicha muammolar shakllanishiga sabab bo'ldi. Soha bilan bog'liq materiallar tarixchi va arxitektura olimlarida uchraydi, ammo bular yetarli darajada emas. Tarixchilar va me'morlar urbanizatsiyaning rivojlanish tarixi va bosqichlarini qurilish uslublarini o'zgarishlariga qarab belgilaydilar. O'zbekistonda urbanizatsiya bosqichlarini o'rgangan va taklif kiritgan tadqiqotchilar asarlarida faqat ma'lum ma'noda o'z davri bilan bog'liq materiallar uchraydi, xolos. Urbanizatsiyaning rivojlanish bosqichlarini o'rganish fanni boyitish, keyingi ishlar uchun manba bo'lish bilan birga ulardagi ijobiy jihatlarni bugungi kun uchun joriy qilish imkoniyatini beradi. Yuqorida qayd etilgan bosqichlar bo'yicha dissertatsiyada to'xtalib o'tilgan va qarash va takliflari asoslab berilgan.

Dissertatsiyada tahlil etilgan ma'lumotlar asosida hozirga qadar urbanizatsiyaning O'zbekiston bo'yicha rivojlanish bosqichlari to'liq ochib berilmaganligi ta'kidlangan. Shularni inobatga olgan holda ijtimoiy-falsafiy yondashuv asosida urbanizatsiyaning rivojlanish tarixiy bosqichlarini ishlab chiqilgan va taklif kiritilgan. Ular quyidagicha etib belgilangan:

1. Miloddan avvalgi 3-2 ming yillikdan to ilk shahar davlatlar davrigacha;
2. Yunon-makedon istilosi davri;
3. Yuechjilar davridan to turk xoqonligigacha bo'lgan davr;
4. Arab istilosi davri;
5. Mo'g'ullar davri;
6. Amir Temur va Temuriylar davri;
7. Xonliklar davri;

<sup>15</sup> Shaharlar geografiyasi. / Soliyev A.S. va boshqalar. Toshkent: Barkamol fayz media, 2018. - B.64-65

<sup>16</sup> Shaharlar geografiyasi. / Soliyev A.S. va boshqalar. Toshkent: Barkamol fayz media, 2018. - B.64-65

8. Rus istilosidan avvalgi va istilo davri;
9. Sovet davri;
10. Mustaqillikning dastlabki yillari;
11. Yangi O‘zbekiston davri.

Yuqorida ko‘rsatilgan davrlashtirishga asos sifatida har bir davrning alohida xususiyatlari olingan. Ayni paytda barcha davrlarga xos umumiy xususiyat sifatida barcha davrlar shaharlaridan suv manbai oqib o‘tganligini ko‘rsatish mumkin bo‘ladi. Shu bilan birga ularga xos xususiy jihat sifatida shaharlarning hududiy bo‘linishlari namoyon bo‘ladi. Ya’ni, o‘rta asrlarda shahar berun, ichki shahar – darun va arkka bo‘lingan bo‘lsa, xonliklar davrida ichki va tashqi shaharga, sovet davrida eski va yangi shaharga, mustaqillik davrida esa tuman, daha, guzar va mahallalarga bo‘linganligida namoyon bo‘ladi<sup>17</sup>. O‘zbekistonda shaharlarni qurilish uslublari va bajargan vazifalarini o‘zgarishiga qarab turli davrlarga bo‘lib o‘rganish mumkin. Mazkur taklif fanni boyitilishiga xizmat qiladi va turlicha munosabatlarni keltirib chiqaradi.

Dissertatsiyaning **“Urbanizatsiya jarayonlari yuzaga keltiradigan muammolarning ijtimoiy-falsafiy tahlili”** deb atalgan ikkinchi bobida shahar ekologiyasi va uni boshqarish muammosining ijtimoiy-falsafiy omillari, xususan toza ichimlik suvi, chiqindi muammosi, havoning haddan tashqari ifloslanishi singari masalalar tahlil etilgan. Shuningdek ushbu bobda demografik jarayonlar va bandlikni ta’minlash masalalarining umumiy va xususiy jihatlarining mohiyati ochib berilgan.

Hozirgi kunga urbanizatsiya sohasida bir qator muvaffaqiyatli ishlar qatori hal etilishi lozim bo‘lgan muammolar mavjudki ularni bartaraf etish juda muhim. Bu kabi muammolar qatoriga toza ichimlik suvi, chiqindi muammosi, transport xizmati, havoning ifloslanishi, migratsiya, bandlik, sifatli ta’lim, sifatli tibbiyot singari masalalarni kiritish mumkin. Bularni shartli ravishda shaharni boshqarishning ekologik hamda demografik jarayon va bandlik muammolariga bo‘lish mumkin. Bunga asos sifatida bir qator muammolarning aynan shu sohalarga tegishli ekanligi bilan izohlanadi.

Dissertant fikricha, bugungi kundagi urbanizatsiya jarayonida mamlakatimiz shaharlarida toza ichimlik suvi, chiqindi muammosi, havoning ifloslanishi kabi urbanizatsiyaning ekologik muammolari mavjud. Bu borada hukumatning bir qator qarorlari chiqqan. Ta’kidlash joizki, mazkur muammolarning kelib chiqishiga bir qator ijtimoiy omillar xususan, ishlab chiqarish tashkilotlari, transportlar, texnologiyalarning ma’naviy eskirganligi, falsafiy omillar tabiatga noto‘g‘ri munosabat, ekologik ong, ekologik tarbiya va ekologik madaniyatning yetishmasligi sabab bo‘lgan. Ta’kidlash joiz, atmosfera havosi tabiiy resurslarning tarkibiy qismi sifatida umummilliy boylik hisoblanadi va davlat tomonidan muhofaza qilinadi. 2022-yilning 17-oktyabrida Toshkent shahri aholisi chang tufayli nafas ololmay qolgan, mutasaddilar ushbu jarayonda hech qanday chora qo‘llay olmagani eslash

---

<sup>17</sup> Тоғаева, А. Ўзбекистонда урбанизация жараёнлари ва шаҳар маданияти муаммолари (1950-1990 йиллар). – Тошкент : Yangi nashr, 2017. – В.32.

kifoya<sup>18</sup>. Bu kabi holatlarni oldini olish uchun yerdan ko‘tarilayotgan changni tutib qoluvchi maysalarni, mashinalarning is gazlarini yutuvchi butalarni kesib tashlashni to‘xtatish kerak. Shu bilan birga bu borada ekologik madaniyatni rivojlantirish zarur. Buning uchun quyidagilar tavsiya etilgan:

1. Ko‘chada tibbiy niqob taqish va uni har bir soatda almashtirish lozim.
2. Nafas qaytishi, burun bitishi, aksa urish, tumov, ko‘zlar qizarishi va qichishishi, tomoqda qattiq qichishish, yo‘tal paydo bo‘lganda zudlik bilan allergolog shifokorga murojaat qilish lozim.
3. Tuzli eritmada burun va tomoqni chayish, oynalarni yopiq holatda saqlash, oynalar oldida ho‘l sochiqlarni yoyib qo‘yish va boshqalar.

Hozirgi vaqtda shaharlarda toza ichimlik suvi bilan ta‘minlash muammoga aylangan. Buning ijtimoiy sabablari sifatida suv olish, kanalizatsiya inshootlari hamda ichimlik suvi tarmoqlarining ma‘nan eskirganligi hamda suv ta‘minoti tashkilotlarining moddiy-texnika bazasida sifatli ish sharoiti tashkil etilmaganligini olsak, falsafiy jihatlari sifatida yana o‘sha ekologik madaniyatning yetishmasligini sabab sifatida keltirish mumkin. Xo‘sh bu muammoni qanday bartaraf etsa bo‘ladi? Umuman olganda, hozirgi vaqtda shaharlarda iste‘mol qilingan suv va ko‘rsatilgan xizmatlar hajmini hisobga olishning avtomatlashtirilgan tizimlarini takomillashtirish, ishlab chiqarish jarayoniga energiya hamda suvni tejaydigan texnologiyalar va uskunalarni tatbiq etish hamda toza ichimlik suvi muammosini oldini olish uchun fuqarolarning suvdan foydalanishi madaniyatini oshirishni taklif etilgan. Iste‘molchilar tafakkurida isrof degan tushunchani to‘g‘ri singdirish lozim. Buning uchun quyidagi targ‘ibot ishlari olib borish zarurligi tadqiqotda asoslab berilgan:

1. Suvdan unumli foydalanish moliyaviy barqarorlik omili;
2. Ichimlik suvi – hayot manbai;
3. Suvni isrof qilish – hayotga bepisand qarashdir;
4. Suv - cheklangan eng zaruriy ne‘mat.

Hozirgi vaqtda O‘zbekiston shaharlari oldida turgan dolzarb muammolardan chiqindi muammosi hisoblanadi. Chiqindixonalar ichida ko‘plab xavfli chiqindilar ham mavjud: batareykalar ichidagi simob, flyuorissent lampalardagi fosfor-karbonatlar va maishiy eritmalardagi toksik kimyoviy moddalar, bo‘yoqlar, yog‘och buyumlarni asrash uchun ishlatiladigan turli xil kimyoviy qoplamalar bunga misol bo‘la oladi.

Dissertatsiyada mazkur muammolarning yechimi sifatida quyidagilar ta‘kidlangan:

1. Atrof muhit ob‘ektlarini (yer, suv, atmosfera havosi, o‘simlik va hayvonot dunyosi) saqlash va qo‘riqlanishini ta‘minlash;
2. Aholining ekologik madaniyatini oshirish, atrof muhitni muhofaza qilish sohasida davlat organlari faoliyatining oshkoralik darajasini oshirish va fuarolik jamiyatining rolini kuchaytirish va boshqalar.

Bu masalalar yechimi sifatida fuqarolarda ekologik madaniyatning shakllantirish zarur. Ekologik madaniyat tabiatga yetkazilgan zararning oldini olish

---

<sup>18</sup> Toshkent havosining iflosligi bo‘yicha dunyoda 1-o‘ringa chiqdi // <https://daryo.uz/2022/10/17/toshkentda-17-oktabr-kuni-chang-tozoni-bolishi-kutilmoqda>

va bartaraf etishda munosib ishtirok etish, tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish, ekologik savodxonlikni tarkib toptirishdan iborat. Xo'sh ekologik madaniyat qay yo'l bilan shakllantiriladi? Dissertant fikricha:

*birinchidan*, jamiyatning ekologik barqaror rivojlanishini ta'minlashda ma'naviy-axloqiy omillarni va ularning ustuvorlashuv qonuniyatlarini o'rganish va yoshlarga o'rgatish zarur;

*ikkinchidan*, ekologik muammolar globallashtayotgan sharoitda "tabiat-jamiyat-inson" munosabatlarini boshqarishning ma'naviy-axloqiy tamoyillari va mezonlarining o'zgarish dinamikasini o'rganish maqsadga muvofiq.

Bir so'z bilan aytganda yuqoridagi kabi omillarni insonlarda shakllantirish mamlakatimizda urbanizatsiya jarayonlarida yuz berayotgan ekologik muammolarni oldini olishga xizmat qiladi.

Hozirgi sharoitda Yangi O'zbekistonda shahar atrofi hududlarining kengayishi va qishloq aholisining shaharlarga ko'chib borishi hisobiga yuz beradigan jarayonlar to'g'ri rejalashtirilmagani oqibatida qator muammolarni yuzaga keltirmoqda. Bular demografik jarayonlar, ishsizlik, aholi salomatligi darajasi, ijtimoiy xizmatlar sifati, moddiy farovonlik darajasi va aholining shaxsiy xavfsizligi bilan bog'liq.

Aholiga davlat xizmatlari ko'rsatishda muammolar mavjud. Ayrim tumanlar aholisi qaysi hududdagi tashkilotdan tegishli hujjatlar olishni yoki murojaat etishni bilmaydi. Bu kabi ijtimoiy xizmatlarning sifatsizligi o'ziga xos muammolarni yetaklab kelmoqda. Aholining ortiqcha ovoragarchiligi, navbat kutishlar, ayrim idoralardan norozichilik shular jumlasidandir. Mazkur omillar ayrim hududlarda hali shahar infrastukturasining mavjud bo'lmasligi oqibatida kelib chiqsa, boshqa joylarda buyruqbozlik yoki qog'ozbozlik kabi illatlar natijasida shakllanmoqda. Aytish joiz, bu kabi omillar shaharlardagi taraqqiyotga to'siq bo'la olgani yo'q.

O'zbekiston shaharlarida bugungi kunda sifatli ta'lim va sifatli tibbiyot xizmatlarining o'zni muhim. Shaharlardagi aholining katta qismi sifatli va korrupsiyasiz ta'lim mavjud bo'lishini juda xoxlaydi. Sifatli ta'lim kelajakka tikilgan eng samarali sarmoya ekanini yaxshi biladi. Sifatli tibbiyot masalasi ham aynan sifatsiz ta'lim tufayli kelib chiqmoqda. Bu muammolarni oldini olish maqsadida qator xususiy ta'lim va tibbiyot muassalari ochilib faoliyat ko'rsatmoqda. Bu jamiyat hayotida shaharlar rolining ortib borishiga aholining yuqoridagi kabi xizmatlarni izlab shaharga ko'chishiga olib kelmoqda.

Dissertant fikricha, shaharlarga aholining ko'chib kelishi va sonining ko'payishi natijasida ish bilan ta'minlash va malakali kadrlar yetishmasligi muammolari yetarlicha topiladi. Rasmiy ro'yxatga olingan ishsizlar sonining qisqargan bo'lishiga qaramay, bandlik va malakali kadrlar yetishmasligi muammosi dolzarbligicha qolmoqda. Bunga sabab sifatida yashirin bandlikning, aholining "o'z-o'zini ish bilan ta'minlash" dasturini mavjudligi, e'lon qilingan bo'sh ish o'rinlari va bandlik xizmatiga murojaat qilgan fuqarolarning o'rtasidagi nomutanosiblikning mavjudligini ko'rsatish mumkin. Hozirgi vaqtda yuqoridagi kabi muammolar bo'lishiga qaramay shahar aholi punktlari rivojlanib borayotganini ko'rish mumkin.

O'zbekistonda kasb-hunar ta'limi muassasalari sifatli faoliyat yuritmasligi sababli mehnat bozori ehtiyojlari va mehnat resurslarining taklif etilayotgan tarkibi o'rtasida ham ta'lim, ham kasbiy tarkibiy qismlar bo'yicha ham nomutanosibliklar

mavjud. Bu kabi muammolarni bartaraf etish uchun nima qilmoq kerak? Tadqiqotchining fikricha, hozirgi davrda aholini ilgari mavjud bo'lgan va hozirgi kunda tezkor ravishda transformatsiyaga uchrab qayta tashkil bo'layotgan yoki yangicha ahamiyatga ega bo'lgan kasblarga o'qitish mumkin. Masalan poligrafiya xodimlariga ularni o'rni egallayotgan elektron nashrlarni o'rgatish zarur. Bosma nashrlar o'rniga elektron nashrlar paydo bo'lmoqda. Noshirlar o'rnini to'liq blogerlik postlari egallashi kutilmoqda. Internet-savdo hamda reklamaning rivojlanishi, avtomatik kassalarning paydo bo'lishi sotuvchi, savdo menejeri, savdo agenti, kassir kabi lavozimlarning qisqarishiga olib keladi. 3D printerlarning paydo bo'lishi tikuvchilar faoliyatini qisqarishiga sabab bo'lmoqda. Mamlakatimizdagi demografik jarayonlardagi yana bir muhim omil migratsiya masalasidir. Xo'sh migratsiyaning asosiy sabablari nimalar? Hozirgi vaqtda ichki migratsiya ko'lami kengayishiga quyidagi omillar sabab bo'lmoqda: ishsizlik; kambag'allik; inson huquqlarining poymol qilinishi; kelajakka nisbatan umidsizlik; tushkunlikka tushish; turli xil nizolar; qulay sharoit izlash; ilm olishga bo'lgan intilish; biznes yuritishga intilish va boshqalar.

Dissertant mulohazalariga ko'ra, tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, migratsiya iqtisodiy o'sishga, millatlarning assimilyasiyalashuviga, marginal madaniyatlar boyishiga olib kelgan. Shu bilan birga jamiyat hayotida shaharlar rolining ortib borishi natijasida boshqaruvda ishlab chiqarish kuchlarining ortishiga sabab bo'lmoqda. Natijada, hozirgi vaqtda shaharga ko'chayotgan migrantlarning asosiy faoliyat sohalari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: qishloq xo'jaligi; maishiy xizmat; sanoat va qurilish; san'at va ma'daniyat; ishlab chiqarish; transport va aloqa; savdo-sotiq va boshqalar. Bu esa o'z navbatida zamonaviy turmush madaniyatini rivojlanishiga asos bo'ladigan quyidagi omillarni rivojlantirish zaruratini namoyon etmoqda:

- kichik biznesni rivojlantirish jamiyat farovonligi omili;
- faol tadbirkorlik insonni ulug'laydi;
- innovatsion g'oyalar iqtisodiy taraqqiyot garovidir;
- halol raqobat taraqqiyotga yo'l ochadi;
- kurashuvchan iqtisod mamlakat taraqqiyotiga asos bo'ladi;
- xalq boy bo'lsa davlat ham boy bo'ladi;
- shahar iqtisodiy taraqqiyotga korrupsiyasiz erishadi;
- boqimandalik kayfiyatidan voz kechish iqtisodiy taraqqiyotga asosi.

Bu kabi omillar globallashtirish jarayonida inson ongini o'zgartirish, kishilarda zamonaviy turmush madaniyatini rivojlantirish bilan birga shahar taraqqiyotiga sabab bo'ladigan, aholi bandligini ta'minlaydigan xususiy omillar hisoblanadi.

Migratsiya jarayonlarini tartibga solish borasida, *eng avvalo*, "yo'l xaritasi" ishlab chiqish, *ikkinchidan*, migratsiya jarayonlarida asosan noqonuniy migratsiyani tartibga solish, nazorat qilish hamda boshqarish, *uchinchidan*, aholining, ayniqsa, yoshlarning yuz berayotgan o'zgarishlarga tayyorligini o'rganish va maqbullashtirish orqali ijobiy ta'sir ko'rsatishning psixologik-innovatsion yechimlarini asoslash talab etiladi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**O'zbekistonda shaharlashtirish siyosati va uning ijtimoiy-falsafiy asoslari**" deb nomlangan va unda shaharlashtirish

jarayonidagi davlat siyosati sohasida belgilangan ustivor vazifalar hamda ularning yechimlarini O‘zbekistonga tadbiq etishdagi ziddiyatlar va muammolar tadqiq etilgan. Shuningdek ushbu bobda shaharlashtirish jarayonida zamonaviylik va milliy mentalitet masalalari tahlili amalga oshirilib, taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda urbanizatsiya siyosatini amalga oshirish uchun zamonaviy boshqaruv organlari muvaffaqiyatli faoliyat olib bormoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, erkin iqtisodiy zonalar Departamentlari, O‘zbekiston davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining Sanitariya-epidemiologiya xizmati, Davlat yong‘in nazorati kabi tashkilotlar yuksak xizmatlari sabab qator ishlar amalga oshirildi. Sanoatlashtirish va tijoratlashtirish sohasida yutuqlar qo‘lga kiritildi. Natijada, kishilar kundalik hayotida bandlik imkoniyatlarini oshirishi, turmush tarzida ijtimoiy imtiyozlarning sifatli ta‘lim, farovonlik, sanitariya va uy-joy, sog‘liqni saqlash, dam olish maskanlarining kengayishiga olib keldi. Bu O‘zbekistonda aholini arzon uy-joy bilan ta‘minlashda namoyon bo‘lmoqda. Buning uchun keng ko‘lamli uy-joy qurish dasturlari boshlangan. Mazkur islohotlarni shaharlardan tashqari qishloq joylarda ham uchratish mumkin. An‘anaviy mahalla tuzilmalarida zamonaviy uy-joylar qurishga qaratilgan “Obod mahalla” loyihasi bunga misol bo‘la oladi<sup>19</sup>.

Tadqiqotchi fikriga ko‘ra, hozirgi kunda urbanizatsiya siyosatida hal etish lozim bo‘lgan ustivor vazifalar quyidagilardan iborat:

- migratsiya jarayonlarini ma‘muriy tartibga solish tizimini takomillashtirish yo‘li bilan aholining qishloq joylaridan shaharlarga erkin harakatlanish uchun shart-sharoitlar yaratish;

- urbanizatsiya jarayonlarini rivojlantirishning bir qator omillari, xususan xizmat ko‘rsatish, transport, aloqa xizmatlari kabi masalalarda ham kelajakda bajarilishi lozim bo‘lgan qator vazifalarni belgilab olish;

- yirik shaharlarga tutash bo‘lgan va qulay transport aloqasiga ega yo‘ldosh-shaharlar tarmog‘ini kengaytirish, yirik shaharlarning markaziy qismida sanoat va boshqa zonalar hududlarini qisqartirgan holda ijtimoiy-ishbilarmonlik zonalar hududlarini kengaytirish;

- jahon amaliyotini hisobga olgan holda shahar aholisini joylashtirish tizimini kompleks rivojlantirishni tartibga solish, kichik, o‘rta, katta va yirik shaharlarning samarali nisbatini shakllantirish va boshqalar.

Dissertatsiyada davlat siyosati sohasida belgilangan ustivor vazifalar hamda ularning yechimlari sifatida quyidagilar keltirilgan va bu kishilar kundalik hayotida bandlik imkoniyatlarini oshirishi, turmush tarzida ijtimoiy imtiyozlarni (sifatli ta‘lim, farovonlik, sanitariya va uy-joy, sog‘liqni saqlash, dam olish maskanlari) kengayishiga olib kelishi ta‘kidlangan:

---

<sup>19</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 18.03.2022 yildagi PQ-172-son 2022 — 2026-yillarda “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida qarori, // <https://lex.uz/uz/docs/-5914975>

1. Shahar infratuzilmasiga sarmoya kiritishni tizimli va maqsadli davom ettirish; Shahar infratuzilmasiga mahalliy investitsiyalarni yo‘naltirishni davom ettirishi jadallashtirilishi zarur.

2. Yangi ish o‘rinlari va tadbirkorlik imkoniyatlarini yaratishni jadallashtirish; Yangi ishlab chiqarishlarga sarmoya kiritish uchun qulay muhit yaratish ustida muntazam ish olib borishi maqsadga muvofiq.

3. Kambag‘allikni qisqartirish va ijtimoiy farovonlikka erishish; Urbanizatsiya jadallashgani sababli, shahar va qishloqlarda kambag‘allik va ijtimoiy farovonlik muammosini hal qilish zarurati o‘zib boradi.

4. Atrof-muhitni asrab-avaylash va u bilan bog‘liq muammolarga jiddiy yondashuv; Mamlakatimizda urbanizatsiya jarayoni atrof-muhit muammolarini e‘tiborsiz qoldirmasligi kerak. Bunda “Taraqqiyot strategiyasi”<sup>20</sup>sida belgilangan vazifalarni og‘ishmay bajarish muhim ahamiyat kasb etadi.

5. Ijtimoiy uyg‘unlikni saqlash; Urbanizatsiya ba‘zan ijtimoiy nizolar va qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin. Hukumat urbanizatsiya siyosatini amalga oshirar ekan, fuqarolar ijtimoiy totuvlikni saqlash va tinch-totuv yashashga harakat qilishlari kerak.

Hozirgi kunda urbanizatsiya siyosatining kechiktirmasdan bartaraf etish zarur bo‘lgan mamlakatimizga xos bo‘lgan bir qator muammolar mavjud. Ular:

1. Urbanizatsiya loyihalarini moliyalashtirishning yetarli emasligi;
2. Urbanizatsiya loyihalari uchun mas‘ul bo‘lgan turli davlat idoralari o‘rtasidagi cheklangan muvofiqlashtirish va hamkorlikning yo‘qligi yoki qarama-qarshi siyosatlar, takrorlashlarning mavjudligi;
3. Urbanizatsiya maqsadlari doirasida atrof-muhitni muhofaza qilish choralariga yetarlicha e‘tibor qaratilmaganligi;
4. Barqaror shahar infratuzilmasi, shu jumladan transport, suv ta‘minoti va kanalizatsiya, energiya va telekommunikatsiya tizimlarida muammolarning ortib borayotganligi;
5. Barcha fuqarolar uchun arzon va qulay uy-joylar bilan ta‘minlash masalasining hamon kun tartibida ekanligi;
6. Sifatli ta‘lim, sog‘liqni saqlash va boshqa ijtimoiy xizmatlarda barqarorlikning mavjud emasligi;
7. Oliy ta‘lim muassasalarida sohaga oid kadrlarni tayyorlash tizimining talablarga javob bermasligi;
8. Jamoat xavfsizligi va favqulodda vaziyatlarga javob berishning samarali tizimlari zamon talablariga to‘liq javob bermasligi;
9. Barqaror rivojlanish va uglerod izlarini kamaytirish va chiqindilarni boshqarish uchun ekologik toza amaliyotlar.
10. Fuqarolar turmushini qo‘llab-quvvatlash va investitsiyalarni jalb qilish uchun iqtisodiy imkoniyatlar va ish o‘rinlari yaratish jarayonlarining sustligi yoki xo‘jako‘rsinga bajarilayotganligi va boshqalar.

Dissertatsiyada shaharlashtirishda zamonaviylik va milliy mentalitet masalalari e‘tibor qaratilgan. O‘zbekiston urbanizatsiya siyosatida milliy mentalitet bilan

---

<sup>20</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi PF-158-son “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida Farmoni, // <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>

bog‘liq omillardan biri an’anaviylik hal qiluvchi o‘rin tutadi. An’anaviylik deganda jamiyat a‘zolariga ma‘lum bo‘lgan jismoniy muhit va ijtimoiy tuzilmani qurish tushunchasi tushuniladi<sup>21</sup>. An’anaviylikning o‘zagida an’ana tushunchasi turadi. Boshqacha aytganda, O‘zbekistondagi shaharsozlik mutaxassisleri muvaffaqiyatli urbanizatsiyaga erishish uchun o‘zlarining shaharsozlik chizmalarida an’analarga sodiqlik yoki an’anaviylik va qulaylik hissini yaratishi lozim. Urbanizatsiya siyosatida milliy qadriyatlarni saqlab qolishning mumkin bo‘lgan usullaridan biri an’anaviy arxitektura dizayni va materiallarini shahar rivojlanishiga kiritishdir. Bu an’anaviy materiallardan, masalan, taxta, g‘isht, yog‘och va to‘quv matolardan, shuningdek, binolar va jamoat joylarini qurishda an’anaviy dizayn hamda naqshlardan foydalanishni o‘z ichiga olishi mumkin. Bu O‘zbekistonning islom va islomgacha bo‘lgan Markaziy Osiyo dizayni elementlarini o‘zida mujassam etgan o‘ziga xos me‘moriy uslubni saqlab qolishga yordam beradi. O‘z navbatida zamonaviy shaharlar loyihasida SMART CITY dasturini amalga oshirish imkoniyatlarini ko‘rib chiqish imkonini beradi. Ya’ni bu holatda mazkur loyihaga va milliy mientalitetga xos xususiyatlar saqlab qolinadi.

Milliy qadriyatlarni asrab-avaylashning yana bir yo‘li – shaharlarda madaniy va san‘at tashabbuslarini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlashdir. Mahalliy rassomlar, musiqachilar va hunarmandlarga sarmoya kiritish O‘zbekiston san‘ati va hunarmandchiligini targ‘ib qilish hamda an’anaviy madaniy an‘analarni saqlab qolishga yordam beradi. Bu madaniyat markazlari va muzeylar qurish, festivallar va tomoshalar tashkil etish, mahalliy quruvchilar va hunarmandlarni qo‘llab-quvvatlashni o‘z ichiga olishi mumkin. Natijada, qadriyatlarni asrash, mehmondo‘stlik, madaniy merosdan foydalanish zaruriyatlari qanoatlantiriladi. Bu zamonaviy shaharlar barpo etishda milliylik va zamonaviylikni uyg‘unlashtirishda muhim o‘rin tutadi.

Dissertant mulohazalariga ko‘ra, urbanizatsiya jarayonida milliy mentalitetdagi zamonaviy xususiyatlar bilan bog‘liq o‘zaro hamkorlik va ijtimoiy hamkorlikning ba’zi imkoniyatlari va afzalliklari quyidagilarda o‘z aksini topadi:

1. Hamjamiyat ishtiroki: O‘zaro hamkorlikning asosiy afzalliklaridan biri qarorlar qabul qilish jarayonida jamoatchilik ishtirokini oshirishdir.

2. Resurslarni taqsimlash: O‘zaro hamkorlik, shuningdek, jamoalar o‘rtasida asbob-uskunalar yoki ishchi kuchi kabi resurslar va aktivlarni almashishni anglatishi mumkin. Bu loyihalar samaradorligini oshirish va xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi.

3. Mahalla birlashmalari: Mahalla uyushmalari yanada yaxlit va uyushgan jamoalarni yaratishga yordam beradigan ijtimoiy hamkorlik shaklidir.

4. Jamiyat tomonidan boshqariladigan tashabbuslar: Ijtimoiy hamkorlik jamoat joylarini yaxshilash yoki barqaror amaliyotlarni ilgari surish kabi tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlashga ham yordam beradi.

Tadqiqotda o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari tahlil etilgan. Mamlakatimiz shaharlashtirish siyosatida ko‘proq qaysi yo‘ldan borgani afzal? - degan savolga respondentlarning 115 nafari, ya’ni 22,9 % namunali hovli uylar qurish yo‘lidan,

---

<sup>21</sup> Qarang: Ma’naviyat asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. Qayta ishlangan yangi nashr. – T.: G‘afur G‘ulom, 2016.

121 nafari, ya'ni 24 % katta hajmli ko'pqavatli uylar qurish yo'lidan, 252 nafari, ya'ni 50 % ikkalasidan ham foydalanish zarur, 6 nafari, ya'ni 1,1 % javob berishga qiynalaman deb javob bergan bo'lsa, 11 nafari, ya'ni 2 % o'z javob variantini yozib qoldirgan. Bundan ayon bo'ladiki xalqimiz milliylik va zamonaviylik uyg'unlashgan shaharlar qurilishidan manfaatdor. Shaharlar bunyod etish jarayonida an'anaviylik va zamonaviylik uyg'unlashgan shaharlar qurish maqsadga muvofiq.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobi **“Yangi O'zbekistondagi urbanizatsion holat va shahar madaniyatini rivojlantirish zarurati”** deb nomlanib, unda Yangi O'zbekistonning barqaror urbanistik taraqqiyotga erishishda OAV va ijtimoiy tarmoqlarning ahamiyati hamda istiqbollari tadqiq etilgan. Shuningdek, hozirgi urbanizatsion rivojlanish jarayonida shahar madaniyatini shakllantirish vazifalari va uning innovatsion usullarining ijtimoiy-falsafiy jihatlari ochib berilgan.

Urbanistik taraqqiyotga erishishda turli omillar, jumladan, aholida halollik, rostgo'ylik, tashabbuskorlik, fidoyilik kabi fazilatlar ta'sir ko'rsatadi. Halollik ishonch, oshkorlik va hisobdorlikni rivojlantiruvchi muhim sifatdir. Ishonchni mustahkamlash va halol muloqotni rivojlantirish yanada uyg'un va sezgir shahar madaniyatiga hissa qo'shishi mumkin. Bunda shahar aholisining bir-birini aldamasligi, munosabatlarda vijdonli bo'lishi nazarda tutiladi. Barqaror urbanistik taraqqiyotni ta'minlash va faollashtirishda fuqarolar va OAV muhim ahamiyatga ega. Barqaror urbanistik taraqqiyotni ta'minlashda fuqarolar va OAV munosabatlari:

- auditoriyani umumiy media jarayoniga jalb qilgan holda shaharning yagona axborot makonini shakllantirishda;
- ommaviy axborot vositalari jamiyatning integratori bo'lishida;
- shahar ommaviy axborot vositalari auditoriyasining g'oyaviy va aksiologik munosabatlarini yaratishda;
- mahalliy shahar hamjamiyatlarini shakllantirish va o'zgartirishda namoyon bo'ladi.

Tadqiqotchi fikriga ko'ra, ijtimoiy tarmoq mas'ullari – jurnalist va blogerlar shaharlar hayoti bilan bog'liq bir qator loyihalarni amalga oshirishlari samara beradi. Masalan:

- so'rovnomalar o'tkazish; (shaharlashtirish va jamoatchilik muammolariga bag'ishlangan)
- analitik roliklar tanlovi (mutaxassislar ishtirokida).
- turkum ko'rsatuvlar (tarmoqlarda).

Bular ommaviy axborot vositalarining shaffoflik, intensivlik kabi muloqot komponentlarini rivojlantirishga hamda urbanizatsiya jarayonlarini faollashtirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga shaharlashtirish muammolariga qaratilgan quyidagi ishlarni amalga oshirish ularning faoliyati samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi. Ular quyidagilar:

- muntazam ravishda shaharlar muammolariga bag'ishlangan yuqori sifatli roliklar qo'yib borish;
- muammolar aks etgan postlar video materiallar;
- muammoga bag'ishlangan infografika va qisqa videolar;
- ogohlikni oshirish;
- axborot to'plash va hisobot berish;

- targ'ibot va kun tartibini belgilash;
- muloqotni osonlashtirish;
- eng yaxshi tajribalarni targ'ib qilish.

Natijada, ijtimoiy-ishbilarmonlik hududlarini kengaytirishga olib keladi. Mamlakatimizda urbanizatsiya jarayonlarini tubdan takomillashtirish maqsadida urbanizatsiya muammolari va ularni yechishga qaratilgan ko'rsatuvlar va xabarlarini yetkazib beruvchi televideniya tashkil etishni taklif etiladi. Shu bilan birga:

- shaharlashtirish muammolarini yoritib boruvchi radio tashkil etish va uni rivojlantirish bo'yicha xorijiy mutaxassislarni jalb etish;
- ijtimoiy tarmoqlarda shaharlashtirish muammolarini yoritib boruvchi kanallar tashkil etish va ular faoliyatini qo'llab quvvatlash;
- shaharlashtirish muammolari bilan shug'ullanuvchi jurnalist va blogerlar daxlsizligini ta'minlash maqsadida sohaga oid qonun qabul qilish;
- sohaga daxldor rahbarlarning ommaviy axborot vositalarida hisobot berish tizimini ishlab chiqish zarur.

Dissertatsiyada yuqorida keltirilgan takliflar kuzatishlar, jahon tajribasi va mavzu bo'yicha aholi o'rtasida o'tkazilgan sotsiologik so'rov natijalariga tayanib berilgan. Ta'kidlash joizki, so'rovnomada yuqori foizlarda qo'llab quvvatlangan telekanal va radiokanal ochish borasidagi takliflardan kelib chiqib ularning taxminiy dasturlarini shakllantirilgan.

Dunyo olimlari va qator fan sohalari vakillarining fikriga ko'ra urbanistik madaniyatni shakllanishi va rivojlanishi uchun sharoit yaratish yuzaga kelgan hamda paydo bo'lishi mumkin bo'lgan muammolarning bartaraf etish, shuningdek oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Urbanistik madaniyatni shakllantirish va uni rivojlantirishda yosh avlod muhim o'ringa ega. Shahar madaniyati tarkibida ikkita asosiy komponentni ajratib ko'rsatish mumkin. *Birinchi*dan, bu o'z-o'zidan paydo bo'ladigan kundalik shahar madaniyati bo'lib, u shaharning ijtimoiy-madaniy voqeligini qo'llab-quvvatlovchi va qayta yaratadigan ob'ektiv va semantik shahar muhitida yozilgan muntazam ijtimoiy amaliyotlarni o'z ichiga oladi. *Ikkinchi*dan, bu urbanizmning madaniy va semantik kontekstini tashkil etuvchi professional tarzda yaratilgan tovarlar va xizmatlar majmuidir. Shu bilan birga, ular nafaqat moddiy artefaktlarni (binolar, kiyim-kechaklar va boshqalar), balki ma'naviy narsalarni ham (afsonalar, ideologemalar, stereotiplar va boshqalar) o'z ichiga oladi<sup>22</sup>.

Tadqiqotchi fikricha, shahar madaniyati rivojlanishi aholi farovonligini yuksaltirishga xizmat qiladi. Buning uchun quyidagi salbiy antropologik oqibatlarini oldini olish zarur:

- metropoliya aholisining befarqligi;
- individuallikning yo'qligi, begonalashuvning rivojlanishi;
- kognitiv mexanizmlarni moslashtirish;
- shahar aholisining doimiy ravishda ko'radigan odamlarni tan olmaslik xususiyati;
- to'yinganlik, yangi tuyg'ularni doimiy izlash va shu asosda buzuqlik va eksantriklik tendensiyasi;

<sup>22</sup> Qarang: Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati. Qayta ishlangan yangi nashr. – T.: G'afur G'ulom, 2016.

- boshqa shaxslarning murojaatlari va so'rovlariga tanlab javob berish;
- boshqa odamlarning hayotida ma'naviy va ijtimoiy ishtirokining cheklanganligi va o'z hayotida begonalarning ishtiroki;
- ijtimoiy mas'uliyatning yo'qligi va yirik shaharlar aholisining yordam ko'rsatishga tayyorligining zaiflashishiga olib keladi. Bunda Vatansizlik yani kosmopolitizm namoyon bo'ladi;
- metropoliya rezidentining anonimligi insonning rasmiy majburiyatlardan va ijtimoiy aloqalardan ozod bo'lishiga olib keladi, lekin u odamlardan begonalashish va izolyatsiyani his qilishi mumkin. Urbanistik madaniyat aynan yuqoridagi kabi salbiy omillarga qarshi xususiyatlarga ega bo'lib ularni rad etadi va taraqqiyot uchun insonlarda ijobiy xususiyatlar halollik, rostgo'ylik, tashabbuskorlik, xolislik, hamjihatlik, Vatanparvarliklarni shakllanishiga xizmat qiladi.

Dissertant mulohazalariga ko'ra, urbanistik madaniyat begonalashuv, loqaydlik, mas'uliyatsizlik, kosmopolitizm kabi antropologik xususiyatlarni oldini olishi bilan tavsiflanadi. Fuqarolarning urbanizatsiya madaniyatini o'zlashtirishiga ta'sir qilishning ba'zi potensial usullari quyidagilarda o'z ifodasini topadi:

1. Interaktiv o'quv fanlari; Urbanizatsiya madaniyatini yuksaltirishning kalitidir. Bu urbanizatsiyaga oid mavzularini boshlang'ich ta'limdan to oliy o'quv yurtigacha bo'lgan barcha darajadagi maktab va OTM o'quv dasturlariga kiritishni o'z ichiga olishi mumkin.

2. Urban/culture ilovasi; Jamoatchilikni shaharsozlik jarayonlariga jalb qilish fuqarolarda mulkdorlik va daxldorlik tuyg'usini rivojlantirishi mumkin.

3. Zamonaviy infratuzilma; Shaharning yangilangan, zamonaviy infratuzilmasi odamlarda unga bo'lgan qiziqishni orttirishi, shu bilan birga ko'chib o'tish orqali yangi urbanistik madaniyatni shakllanishiga va rivojlanishiga olib kelishi mumkin.

4. Tashabbuslar uchun rag'batlar loyihasi; shahar dehqonchiligi, yashil infratuzilma va tarixiy obidalarni saqlash kabi barqaror urbanizatsiya amaliyotlarini qo'llaydigan odamlarni rag'batlantirish fuqarolar o'rtasida urbanizatsiya madaniyatini rag'batlantirishi mumkin.

5. Ko'rik tanlov, konkurs, festivallar; Eng toza shahar, eng tinch shahar, eng go'zal shahar, kabi tanlovlar, mehmondo'stlik, kabi festivallar o'tkazish orqali shahar madaniyatini rivojlantirish.

6. Qat'iy urbanizatsiya siyosati; Barcha odam tomonidan bajarilishini ta'minlash uchun siyosatni ishlab chiqish va qoidalarni qabul qilish va ularni buzganlarni javobgarlikka tortish.

7. Hamkorlik va aloqalar; nohukumat tashkilotlar, xususiy sektorlar va shaxslar bilan hamkorlikni rivojlantirish urbanizatsiya tomon madaniy siljishni ilgari surishi mumkin.

Bular esa o'z navbatida aholi farovonligini ta'minlashning eng muhim vositalaridan hisoblanadi. Aytish joiz, shaharning madaniyat maydoni keng ko'lamli dam olish, ko'ngilochar va kundalik hayotni ta'minlaydi, chunki shaharda, qoida tariqasida, teatrlar, muzeylar, san'at galereyalari, kutubxonalar, restoranlar, shuningdek, uy xo'jaliklari, kimyoviy tozalash va boshqalar mavjudligi bilan xususiyatlanadi.

## XULOSA

Yangi O‘zbekiston sharoitida urbanizatsiya jarayonlari rivojiga ta’sir ko‘rsatadigan omillarni tadqiq etish, olib borilayotgan tarkibiy islohotlar doirasida yirik strategik loyihalarini amalga oshirish bilan bir qatorda aholi farovonligining o‘sishi va barqaror rivojlanishiga yetaklovchi omil ekanligini asoslashga xizmat qiladi. So‘nggi yillarda urbanizatsiya darajasining pasayish tendensiyasi shaharlarni kompleks rivojlantirish bo‘yicha zamonaviy talablar va jahon tendensiyalaridan sezilarli darajada qolib ketayotganligi uning barqaror xususiyatga ega emasligini ko‘rsatmoqda. Urbanizatsiya jarayonlarini samarali tartibga solinishni ta’minlash hamda urbanizatsiya sohasida eng muhim metodologiyalarni shakllantirish, chuqur o‘rganilishini ta’minlash zarurati asosida quyidagi xulosalar chiqarilgan:

1. Urbanizatsiya - ko‘p sonli odamlarning qishloqlardan doimiy ravishda nisbatan cheklangan hududlarga, ya’ni shaharlarga ko‘chishi, to‘planishi, doimiy manfaatlar to‘qnashuviga kirishish jarayonlari hisoblanib, bunda shaharlar rolining ortib borishi hamda davlat va jamiyat rivoji yo‘lida qilingan islohotlarning samarasi yoki zararlarini ko‘rish mumkin hamda u bilan bog‘liq tadqiqotlar hajmi va sifatini oshirish muhim ahamiyatga ega.

2. Urbanizatsiya jarayonining rivojlanish bosqichlarini o‘rganish, ularning o‘ziga hos xususiyatlarini tahlil qilish, falsafa fanining umumiylik, hususiylik va alohidalik tamoyillari orqali davrlashtirish, shu bilan birga ushbu bosqichlarning ijobiy hamda salbiy tomonlarini tadqiq etgan holda bugungi kunda ulardan foydalanish imkoniyatlari bo‘yicha xulosalar berish urbanizatsiya jarayoni taraqqiyotiga xizmat qiladi.

3. Shaharlashtirish jarayonida paydo bo‘ladigan ekologik muammolar, ularni keltirib chiqaradigan sabablarni o‘rganish, bartaraf etish bo‘yicha xulosalar tayyorlash, bu borada xorijiy davlatlar hamda ajdodlarimiz tajribasini uyg‘unlashtirish, shu bilan birga aholi o‘rtasida ekologik ong, ekologik tarbiya hamda eng muhimi ekologik madaniyatni rivojlantirish bu boradagi davlat siyosatini qo‘llab quvvatlash zarur.

4. Demografik muammoni hal etish jarayonida aholi bandligini ta’minlash, ularni zamonaviy kasb-hunarlariga o‘rgatish, ilm-fanni joriy etish va innovatsiyalardan xabardorligini oshirish, boshqaruvning ishlab chiqarish salohiyatini oshirish va aholini urbanizatsiya qilish insonning taraqqiyot muhimligini anglab yetishiga xizmat qiladi.

5. Hukumatning asosiy urbanizatsiya siyosati sanoatlashtirish va tijoratlashtirish jarayonlarini rivojlantirish aholining kundalik hayoti uchun zarur bo‘lgan bandlik imkoniyatlarini oshirishga, turmush tarzida sifatli ta’lim, sifatli sog‘liqni saqlash, dam olish, sifatli mahsulotlar, arzon uy-joy va boshqalar kabi ijtimoiy imtiyozlarni kengaytirishga yordam beradi, bu esa o‘z navbatida aholini bugungi hukumat siyosatiga rozi bo‘lishga sabab bo‘ladi.

6. Shaharlashtirishda yangi aqlli va sifatli shahar loyihalarini ishlab chiqish, xalq muhokamasidan o‘tkazish va amalga oshirish bunda zamonaviylik va milliylik uyg‘unlashgan uy-joylar, bog‘lar, teatr va muzeylar bunyod etish yo‘lidan borish va milliy mentalitet bilan bog‘liq tanish-bilishchilik, mahalliychilik, ijtimoiy

korrupsiya kabi tafakkur tarziga xos illatlardan halos bo'lish muhim.

7. Shaharlashtirish jarayonida yuzaga keladigan salbiy illatlarini oldini olish va taraqqiyotga erishish maqsadida ijtimoiy tarmoqlarda telegram, instagram, yutub, feysbuk kanallar, odnoklasnikida guruxlar tashkil etish, mavjudlari faoliyatini jonlantirish, shuningdek, maxsus televidenie va radiokanallar tashkil etish shahar muammolarini bartaraf etish hamda jarayonda paydo bo'layotgan muammolarni bartaraf etish yoki oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

8. Hozirgi urbanizatsiya taraqqiyotini hisobga olib, shahar madaniyati, boshqacha aytganda urbanistik madaniyatni rivojlantirish, uning tarkibiy qismlarini aniqlashtirish, aholi orasida targ'ib etish bunda Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazlari viloyat Kengashlari qoshida shahar madaniyatini targ'ib etuvchi guruhlar tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun ularni qayta tayyorlovdan o'tkazish hamda zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish zarur.

*Tadqiqot natijalari asosida amaliyotga joriy etishga qaratilgan quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan:*

1. Sport va sog'liqni saqlash vazirligi hamkorligida "sog'lom shahar" dasturini yaratish va ishga tushirish, mavjud ekologik muammolarni bartaraf etish bo'yicha haftaliklar tashkil etish va dastur orqali fuqarolarga barcha o'zgarishlarni kuzatib borish imkoniyatlar yaratib berish;

2. Respublika ma'naviyat va marifat markazi qoshida mamlakatimizda urbanizatsiya jarayonlarni xolis va shaffof o'rganadigan nodavlat sotsiologik markazlarini tashkil qilish, ularni zarur kadrlar bilan ta'minlash, davlat tomonidan qo'llab quvvatlanishiga erishish hamda ular tomonidan aniqlangan muammolarning yechimlari bo'yicha takliflarini amaliyotga tadbiiq etish ishiga ko'maklashish;

3. Urbanizatsiya va shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish Respublika markazi qoshida shaharlarni rejalashtiruvchi Milliy Kengash tashkil etish, uning zamonaviy platformasini ishga tushirish, bunda barpo etilishi ko'zda tutilayotgan "Yangi O'zbekiston" massivlarining joylashuv o'rinlari, yaratiladigan imkoniyatlar haqida ma'lumotlar berib borish, va bu orqali jarayonda tegishli qarorlar qabul qilishda fuqarolar ishtirokini ta'minlash;

4. Barcha uchun mo'ljallangan milliy urbanizatsiya taraqqiyoti uchun xizmat qiluvchi ommabop kitoblar va risolalar chop ettirilsa hamda taraqqiyotga erishish maqsadida OAVning roli yanada oshirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Davlat tomonidan mazkur masalalar bo'yicha maxsus grantlar ajratish, ushbu grantlarga xorijlik va xorijda tahsil olayotgan yurtimiz tadqiqotchilari va mutaxassislarini jalb etish, shuningdek, ijtimoiy tarmoqda sayt yaratib yuqorida ta'kidlanganlarni yoritib borilishi lozim;

5. Oliy ta'lim tizimidagi oliy o'quv yurtlarining sohaga ixtisoslashgan ta'lim yo'nalishlarida "Shahar madaniyati" "Shaharlar tarixi" kabi tanlov fanlarni o'quv rejalarga kiritib, yangi o'quv kurslarini joriy etish, ularning dasturlarini ishlab chiqish hamda innovatsion metodlar vositasida o'quvlar tashkil etish lozim.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ DSc.03/27.02.2020.Ф.72.08 ПРИ  
БУХАРСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**ФЕРГАНСКИЙ ПОЛИТЕХНИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ**

**ХОЛМИРЗАЕВ НОДИРЖОН НИЗОМЖОНОВИЧ**

**СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ  
ПРОЦЕССОВ УРБАНИЗАЦИИ В УСЛОВИЯХ НОВОГО  
УЗБЕКИСТАНА**

**09.00.04 – Социальная философия**

**АВТОРЕФЕРАТ  
диссертации доктора (DSc) философских наук**

**Бухара – 2024**

Тема диссертации доктора наук по философским наукам (DSc) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2021.4.DSc/Fal111.

Диссертация выполнена в Бухарском государственном университете.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском и английском (резюме)) на веб-странице Научного совета ([www.buxdu.uz](http://www.buxdu.uz)) и по адресу ([www.ziyo.net.uz](http://www.ziyo.net.uz)) информационно-образовательного портала «ZiyoNet»

**Научный консультант:**

**Хусейнова Абира Амановна**  
доктор философских наук, профессор

**Официальные оппоненты:**

**Саломова Хакима Юсуповна**  
доктор философских наук, профессор

**Туйчиев Бердикул Туракулович**  
доктор философских наук, профессор

**Назаров Насриддин Атакулович**  
доктор философских наук, профессор

**Ведущая организация:**

**Андижанский государственный университет**

Защита диссертации состоится “30” ноябрь 2024 г. в “9<sup>00</sup>” часов на заседании Научного совета DSc.03/27.02.2020.F.72.08 при Бухарском государственном университете. (Адрес: 200114, г. Бухара, ул. М. Икбол, 11. Тел.: +99865221-29-14; факс: +99865221-27-07 e-mail: [buxdu\\_rektor@buxdu.uz](mailto:buxdu_rektor@buxdu.uz))

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Бухарского государственного университета (зарегистрирован под № 539). (Адрес: 200114, г. Бухара, ул. М. Икбол, 11. Тел.: +99865221-29-14).

Автореферат разослан “15” ноябрь 2024 года.

(Протокол реестра № 23 от 15 ноябрь 2024 года)



**Намозов Б.Б.**

Председатель научного совета  
по присуждению учёных степеней,  
доктор философских наук, профессор

**Шарипов А.З.**

Ученый секретарь научного совета  
по присуждению учёной степени,  
доктор философских наук, профессор

**Сафарова Н.О.**

Председатель научного семинара при научном совете  
по присуждению учёных степеней,  
доктор философских наук, профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (DSc))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** Процесс глобализации в мире требует устранения возникающих проблем в сфере регулирования процессов урбанизации, тщательного изучения их актуальных проблем. Это требует от современных институтов маркетинга разработки инновационных подходов к вопросам увеличения возможностей трудоустройства в повседневной жизни людей путем развития тенденций индустриализации и коммерциализации. Поэтому разработка и реализация государственных программ, включающих современные аспекты в области урбанизации, современные формы обеспечения занятости, развития культуры жизни, повышения социально-философских особенностей обеспечения городского развития, приобретают для этих стран актуальное значение.

В мировой науке проводятся научные исследования факторов, ведущих к росту и устойчивому развитию благосостояния населения городов, стабилизации уровня урбанизации, устранению вызванных ею социальных, экономических и моральных проблем. Важно предотвратить и полностью урегулировать эти проблемы в процессе урбанизации, обеспечить развитие городов, развивать праксеологический диалог и, тем самым, активизировать процессы урбанизации. В это связи приобретает все большую востребованность социальное сотрудничество в сообществе, сохранение ценностей, гостеприимство, пользование культурным наследием, предотвращение таких пороков как отчуждение, расхлябанность, безответственность, космополитизм в воспитании людей, развитие городской культуры в сообществе, а также в исследовании детерминированных особенностей решения задач этой области с помощью инновационных методов.

В рамках проводимых в нашей стране структурных реформ особое внимание уделяется регулированию процесса урбанизации в условиях роста и устойчивого развития населения, эффективному использованию мировых тенденций, отвечающих современным требованиям, в комплексном развитии городов, и создание достойных условий жизни для наших граждан. «Наша важная задача в этом направлении — повысить уровень урбанизации нашей страны до 40% к 2025 году, обеспечить, чтобы все население, включая бедных и нуждающихся в социальной защите, необходимо создать благоприятные экономические и финансовые условия для использования основных резервов. Наша важная задача – обеспечить нашим жителям условия жизни, не уступающие городским, даже в отдаленных селах. Обеспечить население, прежде всего малообеспеченных и молодых семей, дешевой, современной, комфортной едой и питьем, создать рабочие места вокруг мест проживания населения, мы продолжим работу по расширению доступа населения к питьевой воде и электричеству»<sup>1</sup>. Поэтому все большее значение приобретают социально-философские факторы обеспечения развития процесса

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. -Тошкент: “O‘zbekiston”, 2021. - Б.206

урбанизации в нашей стране, расширения социальных льгот в образе жизни, улучшения здорового образа жизни людей и городской культуры в обществе.

Настоящее диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, указанных в Указах Президента Республики Узбекистан №УП-158 от 11 сентября 2023 года по стратегии «Узбекистан – 2030», №УП-60 от 28 января 2022 года «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы», №УП-5621 от 10 января 2019 года «О мерах по коренному совершенствованию системы реализации государственной политики в области экономического развития», №УП-5623 от 10 января 2019 года «О мерах по коренному улучшению процессов урбанизации», №УП-6012 от 22 июня 2020 года «Об утверждении Национальной стратегии Республики Узбекистан по правам человека», №УП-32 от 9 декабря 2021 года «О мерах по строительству новых массивов Узбекистана и обеспечению социально-экономического развития регионов», Постановлениях №ПП-4038 от 28 ноября 2018 года «Об утверждении концепции дальнейшего развития национальной культуры в Республике Узбекистан», №ПП-4409 от 31 июля 2019 года «Меры по реализации проекта «Комплексное развитие средних городов» с участием Международного банка реконструкции и развития», №ПП-172 от 18 марта 2022 года «О мерах по реализации программ «Процветающее село» и «Процветающая махалля» в 2022-2026 годах, а также постановлении Кабинета Министров №83 от 21 февраля 2022 года «О дополнительных мерах по ускорению реализации национальных целей и задач в области устойчивого развития в период до 2030 года» и задач, определенных в других правовых документах, связанных с этой областью.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Данное исследование проведено в рамках первого приоритета развития науки и технологий республики под названием «Формирование системы социальных, правовых, экономических и инновационных мер информационного общества и демократического государства и их реализация».

**Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации<sup>2</sup>.** Анализы и исследования показывают, что изучение процессов урбанизации и их проблем является одной из тем исследований, которым уделяется серьезное внимание во многих странах мира. В исследовании социально-философских, политических, экономических и праксеологических проблем развития урбанизации участвуют ведущие мировые научно-исследовательские центры, в том числе, Чикагский университет (США), Центрально-Европейский университет (Венгрия), Высшая школа азиатско-тихоокеанских исследований (GSAPS, Япония), Кэмбриджский университет (Великобритания), Оксфордский университет (Великобритания), Франкфуртский университет

---

<sup>2</sup> Обзор зарубежного научно-исследовательского обзора по теме диссертации и был сделан на основе <https://www.uchicago.edu/>; <https://www.ceu.edu/>; <https://www.waseda.jp/fire/gsaps/en>; <https://www.cam.ac.uk/>; <https://www.conted.ox.ac.uk/>; <https://www.frankfurt-university.de/>; <https://www.erieri.com/>; <https://inrs.ca/>; <https://www.unescap.org/>; <https://www.ined.fr/en/>; <https://www.demogr.mpg.de/en/>; <https://knowledge4policy.ec.europa.eu/>; <https://www.unl.edu/>; <https://www.bib.bund.de/EN/>; <https://www.anu.edu.au/>; <https://msu.ru/>; [www.nuu.uz/](http://www.nuu.uz/); [www.ferpi.uz/](http://www.ferpi.uz/)

